

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI**

AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI



TURKIY TILLAR FAKULTETI

O‘ZBEK TILI KAFEDRASI

5111200 - o‘zbek tili va adabiyoti bakalavr ta’lim yo‘nalishi

4- “A” kurs talabasi

G’APPAROVA LOLAXON RASHID QIZIning

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: «O‘ZBEK SHEVALARIDA DEHQONCHILIK LEKSIKASINING
QIYOSIY TAHLILI»**

Talaba:

L.G’apparova

Ilmiy rahbar:

f.f.d.prof. Y.M.Ibragimov

Kafedra mudiri:

f.f.n. SH.Bo‘ronova

O‘ZBEK TILI VA O‘ZBEK ADABIYOTI KAFEDRALARI QO‘SHMA YIG‘ILISHINING 2022-YIL __- MAYDAGI __- BAYONNOMASI BILAN HIMOYAGA TAVSIYA QILINDI.

NUKUS – 2022

Davlat attestatsiya komissiyasi

QARORI:

5111200 - o'zbek tili va adabiyoti bakalavr ta'lim yo'nalishi 4-«A» kurs talabasi G'apparova Lolaxonning «Umumta'lim maktablarida dehqonchilikni o'rgatish» mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga «____» bahosi qo'yilsin.

«____» _____ 2022- yil

DAK kotibi:

A.Kamalov

MUNDARIJA

KIRISH. Bitiruv malakaviy ishining umumiy tavsifi

I BOB. DEHQONCHILIK LEKSIKASINING SHAKLLANISH JARAYONI

1.1. Dehqonchilik leksikasining tarixiy taraqqiyoti va ahamiyati

1.2. Dehqonchilik leksemasining semantik - uslubiy tavsifi

II. BOB. BOSHOQLI EKIN NOMLARINING LEKSIK SEMANTIK GURUHI

2.1. Sholikorlik leksemasining leksik semantik tavsifi

2.2. G'allakorlik leksemasining semantik o'zgachaliklari

III. BOB. DEHQONCHILIK LEKSEMASINI O'RGATISHDA DARSDAN TASHQARI MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH

3.1. Dehqonchilik leksemasini amaliyotga tatbiq etish bo'yicha metodik tavsiyalar

3.2. Dehqonchilikni o'rganishda o'yin texnologiyalar

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Kirish.

Mavzuning dolzarbligi. Xar bir xalqning madaniyati va ma'naviyati asosida milliy til turadi. Til millatning qalbi, uning o'tmishi, buguni va kelajagi sanaladi. Shu ma'noda har bir millatning ona tilisida uning bebaho xazinasini, minglab so'zlar saqlanadi. Bu so'zlarni asrlar davomida xalq yaratadi, unga sayqal beradi, asrab - avaylaydi. Shuning uchun ham xalqimiz yaratgan bebaho til boyligimizni asrab qolish, ularni tadqiq qilish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Zero, "Ona tilimiz - milliy ma'naviyatimizning mangu bulog'i. Shunday ekan, unga munosib hurmat ko'rsatish barchamizning nafaqat vazifamiz, balki muqaddas insoniy farzimizdir."¹ Shevalar har bir milliy tilning asosini tashkil etadi hamda u milliy va ma'naviy qadriyatimiz hisoblanadi. Aslida ham ona tili deganda sheva tushinilishi haqiqatga yaqindir. Shuning uchun ham uni asrab - avaylash, qadrlash zarur. Bu haqida birinchi prezidentimiz Islom Karimov alohida ta'kidlaganidek, "... o'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy va ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili - bu millatning ruhidir."² Zero, millatning ruhi bo'lgan ushbu qadriyatni avaylab - asrash va rivojlantirish uchun uni lingvistik tabiatidan kelib chiqqan holda chuqur o'rganish darkor. Shuning uchun ham ona tilimizning ajralmas tarmog'i hisoblangan o'zbek shevalarini o'rganish yanada ulkan ahamiyat kasb etadi. Lingvogeografik jihatdan o'rganish shevaning xususiyatini yanada oydinroq tasavvur qilishga imkoniyat yaratadi, chunki lingvistik geografiya metodini qo'llash natijalari tillarning dialektal bo'linishi, tillararo munosabatlar va ularning

¹ Mirziyoyev SH.M. Milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli (O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi) " Xalq so'zi" 2019- yil 22- oktabr

² Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch" Toshkent " Ma'naviyat" 2008-yil 83- bet

tarixini belgilash uchungina emas, balki milliy tillar rivojlanishining turli davrlardagi xususiyatlarini aniqlash, dialektal hodisalarning genetik birligi, qo‘shni tillar va dialektlarning xarakteri, ularning taraqqiy etish yo‘llari hamda dialektlar va adabiy tilning o‘zaro bir-biriga ta’sirini belgilashga yordam beradi. Ayniqsa, kartalashtirish obyekti doim yo etnos moddiy madaniyati bilan, yo xalq ongi, fikrlash tarzi kabi omillarni o‘z ichiga olgan xalq mentalitetini u yoki bu tarzda aks ettirish, uning dialektologik atlasini yaratish usuliga oid munozarali muammolarni hal etish ishimizning dolzarbligini belgilaydi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbek xalq shevalarini o‘rganish sohasida K.K.Yudaxin, E.D.Polivanov, A.K.Borovkov, G‘ozi Olim Yunusov, Sh.Shoabduraxmonov, S.Ibroximov, F.Abdullayev, B.Jo‘rayev, M.Mirzayev, N.Rajabov, O.Madraximov, T.Sodiqov, A.Aliyev, K.Nazarov, A.Shermatov, V.Egamov, X. G‘ulomov, K. Muxammadjonov va boshqa olimlarning xizmatlari benihoyat kattadir.

O‘zbek shevalari V.V.Reshetov, A.Shermatov, X.D.Doniyorov K.Muhammedjonov, A.B. Jo‘rayev, Y.M. Ibragimov, N.Murodovanning ishlarida arealogiya va lingvistik geografiya metodi bilan o‘rganildi. Mazkur ishlarda asosiy e’tibor ko‘proq shevalarning fonetik sistemasi, morfologik xususiyatlariga qaratilgan, lekin sohalar leksikasi, asosan qishloq xo‘jalik leksikasi bilan bog‘liq muammolar umumiy tarzda yoki yo‘l-yo‘lakay tilga olinadi. Ushbu ishimizda Xorazm shevalari dehqonchilik leksikasi o‘rganilmoqda.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi
Bitiruv malakaviy ishi Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Ona tili kafedrasining “Ona tili va uni o‘qitish metodikasi” mavzusidagi ilmiy – tadqiqot rejasi doirasida bajarilgan.

Ishning maqsadi va vazifalari. Dehqonchilik leksikasidan yig'ilgan sheva ma'lumotlarni leksik- semantik jihatdan va lingvogeografik tahlil etish bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadidir.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadidan kelib chiqib quyidagi vazifalari belgilab olindi:

- dehqonchilik leksikasining o'zbek adabiy tili va uning boshqa hududlaridagi shevalari, birinchi navbatda, hududiy jihatdan yondosh bo'lgan shevalar va qardosh turkiy tillar bilan umumiy va farqli xususiyatlarini yoritish;
- Xorazm viloyati shevasida dehqonchilik terminlarini boshqa shevalar bilan taqqoslash;
- qishloq xo'jalik leksikasining qadimgi turkiy yozma yodgorliklar, qardosh va qardosh bo'lmagan tillarga munosabatini qiyosiy- tarixiy tahlil etish;

Bitiruv malakaviy ishning ob'ekti va predmeti. Xorazm viloyatining Yangiariq tumanlarida yashovchi o'zbek shevalari vakillarining shevalari tadqiqotning asosiy ob'ekti qilib olindi. Dehqonchilik leksikasiga oid dala sharoitida yozib olingan matnlar, umumturkiy tilga xos qadimgi yozma yodgorliklar, xalq og'zaki ijodi, o'zbek tilining dialektologik va izohli lug'atlari, turkiyshunos va o'zbek shevashunos olimlarining ilmiy tadqiqot ishlari bitiruv malakaviy ish uchun manba hisoblanadi.

Tadqiqotning metodologik asoslari va metodlari. Tadqiqotning metodologik asosini dialektikaning bilish (gnoseologik) nazariyasi tashkil etadi. Bitiruv malakaviy ishida tavsifiy, qiyosiy -tarixiy metodlaridan foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishining yangiligi quyidagilardan iborat:

Dehqonchilik leksikasini adabiy tildagi variantlaridan ajratish, farqlarini tushunish kabi vazifalar ochib berilgan;

kasbga oid leksikaning chegaralangan farqlovchi belgilari ko'rsatilgan;

kasbga oid leksikadagi o'zgarishlarning jamiyat bilan bog'liqliligi, ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma'naviy tomonlari lingvistik nuqtai nazardan tahlil qilingan;

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning nazariy ahamiyati shundaki, o'zbek shevalari qishloq xo'jalik leksikasi semasiologik jihatdan o'rganilganligi uchun tadqiqot materiallari "O'zbek xalq shevalari lug'ati", "O'zbek tili dialektologik atlasini yaratishda ahamiyatlidir. Tadqiqotda lingvogeografiya nazariyasining taraqqiyoti keng yoritilgani bois manba o'zbek va qardosh turkey tillar shevalari leksikasini lingvogeografik usul orqali o'rganishda amaliy yordam beradi.

Ishning tuzilishi va hajmi. Tadqiqot kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 66 bet

DEHQONCHILIK LEKSIKASINING SHAKLLANISH JARAYONI

1.1. Dehqonchilik leksikasining tarixiy taraqqiyoti va ahamiyati

Aynan dehqonchilik yoki qishloq xo'jalik leksikasi o'zbek tili leksikasining hozirgi O'zbekiston hududida dehqonchilik yuzaga kelganidan beri ko'p asrlar davomida shakllanib kelgan o'ta boy qatlamni tashkil etadi. Ushbu til boyligining o'ziga xos xususiyati shundaki, u nafaqat umumturkiy so'z fondini, balki o'zbek xalqi va O'rta Osiyo hududida yashagan qadimgi mahalliy xalqlar leksikasini ham o'z ichiga oladi. O'zbek tili va uning dehqonchilik leksikasining umumiy asosi O'rxun-Enasoy qadimgi turkiy yozma yodgorliklari tashkil etadi. O'zbek tili X-XI asrlarda shakllana boshlagan. Ana shu davrga qadar o'zbek tili, fikrimizcha, umumturkiy tilning boshqa turkiy til shevalaridan ajratib turgan muayyan nojuziy leksik, fonetik va grammatik xususiyatlarga ega bo'lgan. O'zbek tilining shakllanish jarayonida uning dehqonchilik leksikasi ham tarkib topa bordi. Hozirgi O'zbekistondagi o'zbek shevalari dehqonchilik leksikasini sinchiklab o'rganib, VI-VII asrga tegishli qadimgi davr leksik qatlamlarini ajratib olish mumkin. Dehqonchilik leksikasi O'rxun-Enasoy yozma yodgorliklari davrida muayyan so'z guruhini tashkil etgan. U miloddan avvalgi IV-III ming yillikning so'nggi asrlarida, ushbu yozuvlar paydo bo'lishidan ancha ilgari shakllana boshlagan, deb faraz qilish imkonini beradi. Hozirgi O'zbekistondagi o'zbek shevalari dehqonchilik leksikasini sinchiklab o'rganib, VI-VII asrlarga tegishli qadimgi davr leksik qatlamlarini ajratib olish mumkin. Dehqonchilik bog'liq leksikaga qiziqish qadimdan mavjud. Uning yuzaga kelishi tasodifiy emas: bu lug'aviy boylik tubsiz xazina bo'lib, u tilning boshqa sohalariga nisbatan tarixiy qatlamlar ta'sirini o'zida saqlab qolgan o'ta qadimiy umumturkiy leksik qatlamdir. Dehqonchilik bilan bog'liq so'zlarda xalq moddiy va ma'naviy hayoti aks etadi. Xorazm viloyati

Yangiariq tumanidagi o'zbek shevalari to'g'risida qator ishlar yuzaga kelgan, lekin dehqonchilik leksikasiga kam e'tibor berilgan. Ma'lumki, dehqonchilik O'zbekiston Respublikasida yashovchi o'zbeklar hayotida muhim o'rin tutadigan soha hisoblanadi. Shu bilan bog'liq ravishda o'zbek shevalarida bu soha leksikasi ham o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Demak, Xorazm viloyati Yangiariq tumanidagi o'zbeklar shevasida dehqonchilikka oid so'zlarning lug'atini yaratish o'zbek tilining boyligini namoyon qiladi. Qolaversa, uni lingvogeografik jihatidan o'rganish shevaning xususiyatini yanada oydinroq tasavvur qilishga imkoniyat yaratadi, chunki lingvistik geografiya metodini qo'llash natijalari tillarning dialektal bo'linishi, tillararo munosabatlar va ularning tarixini belgilash uchungina emas, balki milliy tillar rivojlanishining turli davrlardagi xususiyatlarini aniqlash, qo'shni tillar va dialektlarning xarakteri, ularning taraqqiy etish yo'llari hamda dialektlar va adabiy tilning o'zaro bir-biriga ta'sirini belgilab berishga yordamlashadi. O'rta Osiyo turkiy xalqlarining tili va shevalari o'zaro uzviy bog'liq tarzida o'rganilishi zarur. Chunki urug'-qabila tili yoki shevachilik xususiyatlari uning geografik chegarasi bilan cheklanmasligi ham mumkin. Butun Xorazm viloyati Yangiariq tumanidagi o'zbek shevalari hududi sheva vakillari nutqida adabiy til leksikasining faol qo'llanilishi kuzatiladi.

Birinchi prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimovning "Tariximiz kabi qadim madaniyatimizning yaratilishida ham unga ko'plab etnik guruhlar, el-elatlar o'z ulushini qo'shgan. Bu tabiiy hol, chunki hech qachon, hech qayerda faqat bitta millatga mansub madaniyat bo'lmaydi. Har qanday sivilizatsiya ko'pdan ko'p xalqlar, millatlar, elatlar faoliyatining samarali ta'sirining mahsulidir. Bir so'z bilan aytganda, bosqinchilar kelib ketaveradi, lekin xalq boqiy qoladi, uning

madaniyati abadiy yashaydi"³, degan soʻzlari tarixiy haqiqatning eng loʻnda ifodasidir. Ming yillar davomida Oʻzbekiston hududlarida yashab oʻtgan urugʻ va qabilalarning tarixi va madaniyati izsiz yoʻqolib ketmagan. Ushbu urugʻ va qabilalarning ayrimlari ajdodlarimizning yirik guruhlarini tashkil etib, eng qadimgi manbalarda, shuningdek, oʻzbek xalqining shajara va shevalarida, xalqimizning xotiralarida, yer-suv nomlarida shu kunga qadar yaxshi saqlanib qolgan. Jumladan, Xorazm viloyati Yangiariq hududida qadimdan toʻrtta turkiy tilli xalq – oʻzbek, qoraqalpoq, qozoq va turkmanlar yonma-yon, ayrim hududlarda aralash holda yashab kelmoqa. Ularning oʻtmish tarixi, tili, madaniyati, urf-odati, diniy eʼtiqodi, turmush tarzi deyarli bir-biridan katta tafovut qilmaydi. Ushbu mintaqada qadimdan yashab kelayotgan mahalliy aholidan olingan maʼlumotlarga koʻra, oʻzbeklarning qoʻngʻirot, qipchoq, nayman, mangʻit, xitoy, uyshun, qangli, kanagas, qiyot, bijanak, jaloyir va boshqa turkiy tilli xalqlar oʻrtasida aynan uchratish mumkin. Bular hozir qaysi xalqning tarkibiga kirmasin oʻzlarining urugʻ-qabilachilik davridagi til elemenlarini shevalarida saqlab qolgan. Bundan Xorazm viloyati Yangiariq tumanidagi oʻzbek shevalari boshqa turkiy tilli xalqlarning shevalari yigʻindisi, takrorlanishidan yiroqmiz. Ularning har biri oʻziga xos fonetik, grammatik va leksik xususiyatlariga ega. Buni eslatishdan maqsad sheva xususiyatlari boshqa tillar taʼsirida keyingi davrdagina qoliplashdi, degan fikrdan saqlanish. Chunki har bir til va shevalar soʻz yasash usullari, leksik- semantik oʻzgarishlar va kasb-hunarga oid soʻzlari bilan farqlana boshladi. Xorazm viloyati Yangiariq tumanidagi oʻzbek shevalari hududi toʻrt turkiy tilli xalq, umuman, turkiy xalqlar, ayniqsa, oʻgʻuz va qipchoq turkiylarning etnogenetik tadqiqotlari uchun jiddiy ahamiyatga ega. Oʻrta Osiyo turkiy xalqlarning tili va shevalari

³ Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yoʻq. Toshkent. Muloqot, 2008.83- bet.

o‘zaro uzviy bog‘liq tarzda o‘rganilishi zarur. Chunki urug‘-qabila tili yoki shevachilik xususiyatlari uning geografik chegarasi bilan cheklanmasligi ham mumkin. Xorazm viloyati Yangiariq tumani o‘zbek shevalari qishloq xo‘jaligi leksikasining ko‘pgina materiallari qoraqalpoq, qozoq, qirg‘iz va turkman tillari bilan bog‘lanadi. Dehqonchilik leksikasini umumxalq leksikasiga nisbati nuqtayi nazaridan olib qaraydigan bo‘lsak, so‘z ma’nolari hamda ular qo‘llanishining barqarorligi, kasbiy so‘zlar va ular muvaqqat o‘rindoshlarining umumxalq maishiy so‘z va ma’nolar bilan chuqur va ko‘rinib turgan aloqalarini qayd etish zarur. Bu sharoitda avvalgi davrlarda dehqonchilik leksikasi alohida tizimga ega bo‘lganligi xususida so‘zlash qiyin. Bunda faqat terminlarga xos birlik yuzaga kelayotganligi to‘g‘risida aytish joiz. Ammo, ikkinchi tomondan, dehqonchilik leksikasi tagi bo‘sh barcha qismlarida ham oxirigacha ishlab chiqilmagan, sinonimiyasida ham o‘zgarishlar, ham variantivlik, ham ortiqchalilik, muayyan nomlarda yetishmovchilik ro‘y bergan muayyan tizimdan iborat. Xorazm viloyati Yangiariq tumanidagi o‘zbek shevalarining dehqonchilik leksikasi ko‘p qirrali bo‘lib, qishloq xo‘jaligi taraqqiyoti natijalarini aks ettira oladi. Qishloq xo‘jalik leksikasida qishloq xo‘jalik ekinlari navlari, turlari, o‘simliklarning unib chiqishi, rivojlanish bosqichlari, ishlov berish va ekin maydoni va uning qismlarini ifodalash uchun ishlatiladigan nomlar, terminlar lug‘at tarkibiga ko‘ra rang-barangdir. Butun Xorazm viloyati Yangiariq tumani o‘zbek shevalari hududi sheva vakillari nutqida adabiy til leksikasining faol qo‘llanishi kuzatiladi. Masalan, Xorazm viloyati Yangiariq tumani dehqonchilik ishlarining gurkirab taraqqiy etishi bilan botanika, agronimya va tuproqshunoslikka oid ilmiy terminlar yuzaga keldi.

Xorazm viloyati Yangiariq tumani o‘zbek shevalari qishloq xo‘jaligi leksikasida adabiy tildagi ekin ma’nosini bildiruvchi so‘zning fonetik shakli turlicha : akin: dikin: deb yuritiladi. Qoraqalpoq, qozoq shevalarida yegin shaklida, qadimgi

uygʻur adliya hujjatlarida ekin soʻzi hozirgi oʻzbek tilidagi shunday soʻz bilan bir xil ma'noga ega boʻlib, atiz esa shudgorlanadigan yerni anglatgan. Bu qadim soʻzning negizi ek va эк koʻpgina turkiy tillarda uchraydi va semantikasi bir xilda barqaror boʻlib, uning fonetik ifodalanishi ham asosan oʻxshash, chunki bu soʻzlar jiddiy fonetik oʻzgarishlarga yuz tutgan emas. Ek soʻzining varianti tarixiy yodgorliklarda ham mavjud. Masalan, Mahmud Qoshgʻariy oʻgʻuz qabilalari tilida qoʻllanadigan ekmoq ma'nosida ek soʻzini va xoʻjalik, mulk ma'nosida ekin soʻzini qayd etadi. Shevalarda ek oʻzagi koʻpgina yangi soʻzlar yasalihi uchun asos vazifasini bajaradi: yigʻin:akin:ekin; Xorazm viloyati Yangiariq tumanidagi oʻzbek shevalarida yigʻinchilik:akinchilik bu terminlar ekin ekilgan katta dala hamda ekinzorni anglatadi. Xorazm viloyati Yangiariq tumani oʻzbek shevalarida 1) dehqonchilik bilan shugʻullanuvchi va dehqonchilik sohasining tilini yaxshi tushinadigan odam; 2) podadan qochib ekin maydoniga kirishga odatlanib qolgan qoramol, qozoqlarda esa егинши qoʻshchi yer haydovchi degan ma'nolarni anglatadi. Dehqonchilik leksikasida oʻsimlik nomlari ikki guruhga boʻlinadi. Bular 1) boshqoli ekinlar 2) sabzavotlarga boʻlinadi. Xorazm viloyati Yangiariq tumani shevalaridagi urugʻ va urugʻlik soʻzlari oʻrnida tuxum:tuxumliq soʻzi ishlatiladi. Urugʻ va tuxum soʻzlari kelib chiqishi jihatidan turkiydir. K.Musayev oʻsimlik urugʻlari nomlarini qiyoslab, ularga xos boʻlgan uch alohida jihatni ajratib koʻrsatadi: 1) yaqin atrofdagi tillarni ham qamrab olgan Oʻrta Osiyo aeraliga nisbatan qadimroq shaklga ega - urugʻ; 2) unga yaqin boʻlgan gʻarbiy qipchoq aerali boʻlib, bu yerda urugʻ+diqdan kelib chiqqan urluk soʻzi tarqalgan ; 3) oʻzbek tili oʻgʻuz va qipchoq sheva va dialektlarida qayd etilgan тоxым shaklini olgan janubiy gʻarbiy aeral hisoblanadi. Shevalarda don, gʻalla soʻzlari ma'nosida ашлык soʻzi ham ishlatiladi. Oʻzbek adabiy tilida gʻalla arpa, bugʻdoy, suli hosili

ma'nolarida qo'llaniladi. O'zbek adabiy tilida ashliq nafaol leksika tarkibiga kiradi. Ammo u shevalarda faol qo'llaniladi.

Tilshunoslikda variativlik hodisasiga olimlar turli: a) adabiy-badiiy til va stilistika; b) ilmiy atamashunoslik; v) xalq atamashunosligi nuqtayi nazaridan yondashadilar. Fikrimizcha, xalq atamashunosligidagi variativlikni tabiiy hodisa deb hisoblaydigan tilshunoslar nuqtai nazariga qo'shilish mumkin. Shevalarda so'zlar variativligi adabiy tilga nisbatan keng qo'llanadi. Shu nuqtai nazardan Xorazm viloyati o'zbek shevalari qishloq xo'jalik leksikasini quyidagicha guruhlab ko'rsatish mumkin: a) adabiy tildan o'rin olgan kasbiy dialektal so'zlar; b) adabiy til va shevalarda muqobiliga ega bo'lgan shevaga xos so'zlar. Ikkinchi guruh qishloq xo'jalik moslamalari, o'simlik navlari va boshqalarni anglatgan va qo'llanilishiga ko'ra tor dialektal (loqal) qatlamni o'z ichiga oladi. Boshqa hududdagi shevalarda bunday so'zlarning o'xshash (parallel) variantlari deyarli uchramaydi. Shu sababli adabiy tilda ham ularning variantlari yo'q. Masalan Orol baliqchilari, Qizilqum ichkarisida yashaydigan chorvadorlarga arpa, bug'doy, qovun, tarvuz, jo'xori, pomidor, belkurak, ketmon, o'roq, urug'lik, bodring, yer ag'darmoq, urug'lik sochmoq kabi so'zlar tushunarli bo'lsa, axir, mardan, bardan, telek, tig'in: diqin; chel; qariq; joya; chiziq; joyek kabi so'zlarning ma'nosi, odatda, tushunarsiz bo'ladi. Bu so'zlarni faqat dehqonlar bilishi mumkin. Bu hodisaning aks tomoni ham bor: baliqchi va chorvadorlarda ham dehqonlar uchun tushunarsiz bo'lgan tor dialektal leksika mavjud. Ham ichki qonuniyatlar, ham til va uning shevalari faoliyatida ekstra va etnolingvistik omillar hisobga olingan sharoitdagina mazkur masalaga yondashish ijobiy natija beradi. O'rta Osiyoning o'zbek, qozoq, qoraqalpoq, turkman, qirg'iz va boshqa turkiy tillari leksikasi, shu jumladan, dehqonchilikka oid leksika taraqqiyotining tarixiy shart - sharoitlari ko'p jihatdan o'zaro muvofiq keladi. Buning sabablarini turkiy tilli xalqlarning turli tarixiy

davrlardagi o'xshash va umumiy iqtisodiy va maishiy sharoitlaridan izlash joizdir. Qishloq xo'jalik leksikasining umumiy asosi qadimgi turkiy yozma yodgorliklar davriga va undan ham avvalgi davrga borib taqaladi.

1.2. Dehqonchilik leksemasining semantik – uslubiy tavsifi

Adabiy tilda ifodasiga ega bo'lmagan buyumlarni ifodalovchi kasbiy so'zlar faqat birgina viloyat yoki hududga xos qishloq xo'jalik qurollari va boshqa buyumlarni nomlaydigan yagona ifodasi bo'lib kelsa, ular adabiy tildan muqim o'rin egallash uchun yaxshi imkoniyatga ega bo'ladi. Bu kabi so'zlar (ilg'or professionalizmlar) adabiy tilning bitmas-tuganmas manbaidir. Regressiv dialektal, ya'ni adabiy tilda nomlaydigan muqobiliga ega bo'lgan professionalizmlar esa u yoki bu sheva doirasidan tashqariga chiqolmaydi.

Xozirgi kunda Xorazm viloyati Yangiariq tumani o'zbek shevalarining qishloq xo'jalik kasbiy leksikasi qishloq xo'jaligida sodir bo'layotgan tub o'zgarishlar, yangi texnika va fan yutuqlarining joriy etilishi bilan bog'liq tez suratlarda yangi so'zlar hisobiga boyib bormoqda. G.Musaboyev fikricha, professional leksika tarixiy so'zlar tarkibiga kirgan yoki kirib kelayotgan so'zlarni o'z ichiga oladi. Lekin kasbning jamiyat rivojiga bog'liq holda tobora ixtisoslashib borishini e'tiborga olmaydigan bu fikrga qo'shilish qiyin. Kasblarning tabaqalanishi ularni ilmiy asosda qayta qurganda ham saqlanib qolib, bu turli kasb-hunar egalari tilida maishiy leksik xususiyatlar va frazeologik iboralarni keltirib chiqaradi. A. Annanurov haqli ravishda kasbiy leksikaning birmuncha istiqbolli ekanligiga e'tibor qaratadi. Qishloq xo'jalik kasbiy leksikasi ilmiy atamashunoslik bilan uzviy bog'liq bo'lib, u yangi nom- atamalar uchun tayyor material vazifasini o'taydi. Shuning uchun mazkur soha ilmiy atamalarni ishlab chiqishda muhim manbadir.

Aytish kerakki, kasb-hunar leksikasi ma'lum darajada atamalardan farqlanadi. Atama alohida vazifa bajaradigan so'z, maxsus tushunchani ifodalash, maxsus buyum- kasbga oid faoliyat tarkibiy qismining nomidir. Atamaning so'z sifatidagi o'ziga xosligi ham aynan ana shunda. Atamashunoslikda atama-so'zlarni baynalmilallashtirishga moyillik mavjud bo'lib, bu uni shu jihatdan nisbatan barqaror bo'lgan kasbiy leksikadan farqlab ko'rsatadi. Qishloq xo'jalik leksikasini umumxalq leksikasiga nisbati nuqtai nazaridan olib qaraydigan bo'lsak, so'z ma'nolari hamda ular qo'llanishining barqarorligi, kasbiy so'zlar va ular muvaqqat "o'rindosh"larining umumxalq "maishiy" so'z va ma'nolar bilan chuqur va ko'rinib turgan aloqalarini qayd etishga to'g'ri keladi. Bu sharoitda avvalgi davrlarda dehqonchilik leksikasi alohida tizimga ega bo'lganligi xususida so'zlash qiyin. Bunda faqat atamalarga xos birlik yuzaga kelayotganligi to'g'risida aytish joiz.

O'zbek tili qishloq xo'jalik leksikasining asosiy qismini kelib chiqishi jihatdan umumadabiy bo'lgan asl turkiy so'zlar tashkil etadi. Mavzu jihatidan jamiyat, inson, tabiat, hayvonot va o'simliklar dunyosi bilan bog'liq juda keng umumadabiy qatlamni o'z ichiga oladi. Ularning o'zi atamalar vazifasida ham keladigan (yer, suv, daryo, o'zan - irmoq, bug'doy, arpa, jo'xori, makkajo'xori, o't, daraxt, o'simlik va hokazo). Bu so'zlar bir vaxtning o'zida ham umumadabiy, ham tor ixtisoslashgan sohaga tegishli. Ular mohiyati va ushbu turli sohalarda anglatgan ma'nolari nuqtai nazaridan o'zaro mos tushadi. Ular semantik va informatsiya hajmiga, ma'no tipiga ko'ra farqlanadilar. A.A.Potebnya mazkur vaziyatga nisbatan so'zning yaqin oradagi va undan keying ma'nosini ajratadi. Bu kabi so'zlar umumiste'moldagi so'zlar deb qaralganda ularga yaqin ma'no xos, ammo, ularni muayyan, aniq fanlarga nisbatan, tegishli tushunchalar nomi deb qaraganda ular uchun undan keying ma'no xos bo'ladi. Masalan, tozan – " chang, to'zon",

tozan – “ gul changi “, gorek – “ko’sak”, tuynek – “ sopcha”, tuynek – “ dehqonchilik hosili”.

Xammasidan ko’ra, atamalarga tor ixtisoslashgan leksika yaqin. Masalan, qovun, tarvuz, makkajo’xori va qovun navlari nomlari : - begzada, babashix va duvedi:sh, berikelle, shirinpechak, djiydedjapraq, xitayi, zamcha “ handalak “, ternek va boshqalar. So’zlarning birinchi guruhi O‘zbekiston hududidagi o‘zbek shevalarida so‘zlovchi barcha shaxslarga ma’lum bo‘lsa, ikkinchi guruh so‘zlari bilan esa faqat tor doiradagi mutaxassislar tanish. Kasbiy so‘zlar, odatda, ilmiy va texnik atamalarning dubletlari bo‘lib kelib, hech qachon yopiq tizim hosil qilmaydilar, ya’ni ular tarqoq, o‘zaro birikmagan birliklardan iborat. Kasbiy so‘zlarga qisman ekspressiya, obrazlilik xos. Shevalarning dehqonchilik leksikasi dehqonning o‘ziga xos ishlab chiqarish faoliyati bilan bog’liq barcha sohalarda adabiy tilga nisbatan boy.

Adabiy til munosabatiga ko’ra, kasbiy so‘zlarni ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhga adabiy tilda qo‘llanadigan so‘zlar mansub bo‘lib, ular o‘zbek tili leksik tarkibining eng boy va keng tarqalgan qatlamlaridan biri – qishloq xo‘jalik leksikasi misolida minglab kasbiy so‘zlar adabiy til tarkibiga kirib, barcha o‘zbek xalqi uchun tushunarli bo‘ladi. Ikkinchi guruhga esa adabiy tilda uchramaydigan, hamma o‘zbeklarga ham ma’lum bo‘lmagan dehqonchilik atamalari kiradi. Masalan, o‘zbek adabiy tilida qovun navlarining o‘ngga yaqin nomlari bo‘lsa, dehqonlar nutqida esa oltmishdan ortiq qovun navi nomini uchratish mumkin: a:zg’in, aqqash biyshek, babashix, begzada, bishek, xiyva bishek, aq navat, gurbek, murrik, nanigosh, bo‘rikalla va hokazo.

Kasbiy leksikaning adabiy tilga kirib kelish yo‘llari ham xilma- xil. Odatda, kasb – hunarga oid so‘z ma’lum vaqt davomida nisbatan tor doira mutaxassislari –

ushbu soʻzni yuzaga keltirgan kasb vakillari isteʼmolida boʻlib, mazkur ishlab chiqarish jarayonida muloqot ehtiyojlariga xizmat koʻrsatadi. Vaqt oʻtishi bilan baʼzi professional soʻzlarning har biri koʻpchilikka maʼlum boʻlib, har biri oʻziga tegishli maʼnosi bilan umumisteʼmoldagi soʻzga aylanadi. Agar soʻzning yangi, adabiy tilda hali qayd etilmagan kasbiy maʼnosi paydo boʻlsa, u koʻp maʼnoli soʻzga aylanadi. Masalan, ayaq soʻzi oʻzining dastlabki “oyoq” maʼnosidan tashqari, “ xirmondagi aylana, eshak yoki hoʻkiz u boʻylab aylanadi, shuningdek, ular qoldiradigan izlar” qisa “choʻntak”, shu bilan birga, qovun yoki tarvuzning poʻstlogʻi tozalanib soʻyilgan katta tiligi. Bu kabi kasbiy maʼnolar koʻp holda adabiy tilda namoyon boʻlmaydi. “Atamalarning keng yoyilishi koʻpincha biron-bir fan, xalq xoʻjaligining sohasiga ulkan, butun xalq ahamiyati berilishiga bogʻliq. Baʼzi leksemalar adabiy meʼyor tomonidan toʻliq oʻzlashtirilib, adabiy tildagi boshqa leksik birliklar bilan birgalikda faol qoʻllana boshlaydi. Xatto ular dastlabki maʼnosini yoʻqotish yoki mavjud maʼnosini kengaytirish bilan kasbiy leksikadan uzoqlashishi ham mumkin. Bu esa xalq orasida u yoki bu buyumlarning amaliy qoʻllanishi, biron tushunchalarning tarqalishi natijasida sodir boʻladi. Sobiq atama – metaforik qayta nomlangan holda yangicha qoʻllanishi tufayli kasbiy leksika bilan aloqasini uzadi. Kasbiy soʻzlarning asl atamalashuvi tegishli sohalarning rivojlanishi intensivligiga bogʻliq kechadi. Masalan, Xorazmda qishloq xoʻjalik ishlarining gurkirab taraqqiy etishi bilan botanika, agronomiya va tuproqshunoslikka oid yangi atamalar yuzaga keldi. Shunday qilib, qishloq xoʻjalik leksikasini tadqiq etish oʻzbek tili tarixi, oʻzbek xalqining madaniy, maishiy, etnografik turmush tarzi, xalq tarixi, ayrim soʻzlarning etimologiyasiga oydinlik kiritish uchun boy maʼlumot berishi muqarrar.

Oʻzbekistonda terminologiya ishlari 30-yillarning boshlaridan jonlana boshladi. 1930- 40 yillar ayniqsa, sermahsul boʻldi. Boshqa sohalar singari qishloq xoʻjaligi

bo'yicha ham qator terminologik lug'atlar, metodik qo'llanmalar vujudga keldi. N. Sayfulmulqovning "Ruscha – o'zbekcha paxtachilik terminlari so'zligi", "Ruscha – o'zbekcha qishloq xo'jalik terminlari lug'ati", S.Ibrohimovning "Paxtachilikka doir qisqacha izohli lug'at", " Bog'chilik terminlari" kabi ishlar e'lon qilindi. Mazkur ishlarning yaratilishi o'zbek qishloq xo'jaligi leksikasini o'rganishdagi dastlabki qadam bo'ldi. Bundan tashqari, qishloq xo'jalik leksikasi uchun faktik material beradigan bu sohaga doir ko'plab terminlarni o'z ichiga olgan qator botanik, filologik lug'atlar ham yaratishdi. Z.Muratovning " Ruscha – o'zbekcha botanik terminlar so'zligi", S.Sahobiddinovning " Ruscha – o'zbekcha botanika terminlari lug'ati" va boshqalar shular jumlasidandir.

1950 yillardan keyingi davr o'zbek terminologiya ishlari taraqqiyotida muhim bosqich bo'ldi. O'zbek qishloq xo'jaligi leksikasiga oid terminlarni o'z ichiga olgan yangi-yangi lug'atlar yaratildi. S.Saxobiddinovning "O'rta Osiyodagi foydali va zararli o'simliklarning mahalliy nomlari lug'ati", "Ruscha – o'zbekcha botanika terminlarning qisqacha izohli lug'ati", K.Zokirov, M.Nabiyev, U.Bratov, X. Jamolxonovlarning "Botanika terminlarining ruscha- o'zbekcha qisqa izohli lug'ati", H.Mamatovning "Paxtachilik terminlarining qisqacha izohli lug'ati", X.Aminov, X.G'ulomov, T.Mo'minov, M. Sobirovlarning " Bog' va toqchilikka oid ruscha – o'zbekcha terminlar opravochnigi", "Lalmikor dehqonchilikka oid qisqacha spravochnik", H. Mamatov, S.Muxammadjonovlarning " Paxtachilikdan ruscha – o'zbekcha qisqacha izohli lug'at" va boshqa juda ko'plab lug'atlar yuzaga keldi.

Bunday amaliy ishlardan tashqari qishloq xo'jaligining turli tarmoqlari leksikasini o'rganish, ularning taraqqiyot jarayonlarini ko'rsatishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar yaratildi. Paxtachilik, qo'ychilik, g'allachilik, polizchilik

terminlari bo'yicha qandidatlik dissertatsiyalari himoya qilindi. Qishloq xo'jaligining hozirgi taraqqiyotini fan, texnikasiz, ularning yutuqlarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Qishloq xo'jalik leksikasi taraqqiyoti ham bevosita shu bilan bog'liqdir. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining fan, texnika asosida tobora takomillashuvi, mukammallashuvi natijasida kun sayin ko'plab yangi – yangi tushunchalar yuzaga kelmoqda. Qishloq xo'jalik leksikasi esa shu tushunchalar ifodasi sifatida yuzaga kelgan yangi –yangi terminlar, ifoda vositalari bilan tobora boyib bormoqda.

O'zbek tili qishloq xo'jaligi leksikasining keyingi taraqqiyotida, qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonida ko'plab yangi terminlarning paydo bo'lishida ayniqsa, rus tilining ta'siri katta. Ulug' oktabr revolyutsiyasidan keyin boshqa sohalar kabi xalq xo'jaligining muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan qishloq xo'jaligi sohasida ham jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Qishloq xo'jaligi xodimlarining mehnatini yengillashtiruvchi yangi – yangi texnik vositalar, mehnat qurollari, dehqonchilik ekinlarining serhosil va turli obi havo sharoitiga chidamli, ertapishar navlari kashf qilindi. Bular qishloq xo'jaligi leksikasi rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatdi. Ular bilan bog'liq, ko'plab atamalar yuzaga keldi. Yangi atamalarning bir qismi o'zbek tili imkoniyatlari asosida yuzaga kelgan bo'lsa, bir qismi boshqa tillardan, asosan rus tilidan, u orqali boshqa Yevropa xalqlari tillaridan o'zlashtirildi. Ulardan ko'plari rus tilida qanday qo'llansa, o'zbek tiliga ham shu holatda o'zlashadi. Masalan, brigada, seyalka, agregat, mexanik, silos, gibrid, aprobasiya, gerbisid, kondisiya, vegetasiya, yarovizatsiya, dlivator, reproduksiya, monoqultura va boshqalar.

II. BOB. BOSHOQLI EKIN NOMLARINING LEKSIK-SEMANTIK GURUHI

2.1. Sholikorlik leksemasining leksik -semantik tavsifi

Eng qadimiy oziq-ovqat ekinlaridan biri bo'lgan sholi janubiy sharqiy Osiyoda bundan yetti ming yil ilgari ekilgan. Sholi O'rta Osiyoda miloddan avvalgi 3-2 asrdan, Yevropada VIII asrdan, Amerikada XV-XVI asrdan ekila boshlagan. Sholi Hindiston, Xitoy, Indoneziya, Yaponiyada asosiy boshqoli o'simlik hisoblanadi. Jahondagi ko'pgina mamlakatlarida asosan Osiyo mamlakatlarida asosiy donli ekini asosiy oziq-ovqat ekini hisoblangan sholi BMT qarori bilan 2004- yil sholi yili deb nomlandi. Sholi issiqsevar va yorug'sevar o'simlik hisoblanadi. Sholi sug'orish va almashlab ekish tizimida o'stiriladi. O'zbekistonda sholi sho'rlanmagan yoki turli darajada sho'rlangan yerlarga asosan bahorda, aprelning ikkinchi yarimidan boshlab ekiladi. Xorazm viloyati Yangiariq tumani o'zbek shevalarida sholi shaklida qo'llanadi, qoraqalpoq, qozoq shevalarida salı shaklida qo'llaniladi. Deyarli barcha turkiy tillarda bu so'z avvalgi tarixiy shaklini saqlab qolgan. Xorazm viloyati Yangiariq tumanida sholining quyidagi navlari ma'lum: qazaq shali, arpa shali, aq shali, Xo'ja Ahmad shalisi va hozirgi kundagi yangi navlari lazer, alanga, nukis va boshqa ko'plab navlari mavjud. Bu nomlarda sholi rangi yoki olib kelingan joyi nomi aks etgan, Xoja Ahmad shalisi esa ushbu navni birinchi bo'lib madaniylashtirgan seleksioner nomi bilan bog'liq bo'lsa kerak. Yangiariq tumanida sholini ekish usuliga ko'ra sochma shali va nal shaliga bo'linadi. Sochma shali bunda sholi urug'i suvga sepiladi, nal shalida esa sholi urug'i oldin bir joyda ko'kartirilib, keyin niholni sholizorga ekib chiqiladi. Ko'pincha nal shali ekiladi. Sholi boshog'ining shakliga ko'ra kelek shali va qilchiqli sholiga bo'linadi. Kelek shali bu sholining tuksiz navi hisoblanadi.

Xorazm viloyati Yangiariq tumanida quyidagi sholi navlari mavjud: Nukus, Alanga, Lazer, Avangard kabi navlari yetishtiriladi. Xalq og‘zaki ijodida ham sholi haqida ko‘plab maqollar mavjud. Misollarga etibor bering: Shali suvsiz palav puvsiz bo‘lmas (Sholi suvsiz palov bug‘siz bo‘lmas), shalining arqasinnan chigin suv ichar (sholining orqasidan kurmak ham suv ichadi), ichina shali ekkan (qattiq suvsiramoq).

O‘rta Osiyoning turkiy xalqlari tillarida guruchga quyidagi so‘zlar mos keladi: Xorazm viloyati Yangiariq tumanida burunch, qoraqalpoqlarda гуринч; qozoqlarda кыруш; qirg‘izlarda кыруч; qadimgi turkiy yozma yodgorliklar tilida gurunch; fors tilida гурунч, принч shakllarida uchraydi. Bu fonetik variantlar p/b, k/g undoshlarining almashinib kelishi va qator unlilarning o‘zgarishi natijasidir. Po‘sti tozalangan sholi guruch:gurich shakllaridagi so‘zlar bilan ifodalanadi. Mahmud Qoshg‘ariy lug‘atida tuturkan, Zamaxshariy lug‘atida tog(u) raq : toguraq so‘zlari guruch ma'nosida ishlatiladi. Qiyoslaydigan bo‘lsak mo‘g‘ul tilida taturya-a(n) so‘zi guruch degan ma'noni anglatadi. Xorazmda yetishtiriladigan to‘q jigarrang, qizg‘ish yoki ingichka qizil sholi navi qirmizi, turkman tilida xan tuvusi deb ataladi. O‘rtacha navli guruch sedr nomini olgan shevadagi varianti esa sedri deyiladi. Qiyoslaydigan bo‘lsak forschada sadri o‘rtacha navli guruchni bildiradi. To‘rtkul, Ellikqal'a shevasida sichqonga o‘xshash hidli, doni cho‘ziqroq guruch turi “tuya tish” so‘zi bilan ifodalanadi.

Quyidagi so‘zlar sholi hosilini yig‘ib olish hamda shu maqsadda ishlatiladigan mehnat vositalari nomlarini ifodalaydi. Sholini yetishtiruvchi shaxs sholikor yoki sholichi deb nomlanadi. Shali qaqmaq sholini somonidan qo‘l bilan qoqib yoki biror narsaga urib ajratish, silkitish yo‘li bilan ajratishni ifodalaydi. Yarma sholini so‘qida yanchganda, tuyganda birmuncha ezilgan guruch; ala bu chala tozalangan

guruch, ushaq bu guruchning yormasi ya'ni maydasi, chigin bu guruchning kurmagi, untaq-untaq kulcha sholi somonini silkitganda tushadigan donlar, iq bu guruchni sovurganda shamol bilan tozalanadigan mayda guruch, kurmaklar va somon changi.

Sholini qovug'idan ajratishda ishlatiladigan mehnat qurollari va u bilan bog'liq jarayonini ifodalovchi nomlar: yag'rinqhaq yoki dig'irman guruch tozalashda toshdan yasalgan kichik qo'l tegirmon turi, bu so'z hozirgi kunda tarixiy so'zlar qatlamiga o'tgan. U sholini chala tozalab, bunda ala (ola) hosil bo'ladi. So'ng hosilni katta so'qida yanchish orqali to'liq tozalanadi; tappi yoki dappi sholini oyoq yordamida yanchishda ishlatiladigan qurol. Depma soqi bu suv yordamida sholi tozalaydigan maxsus qurol turi. Ushbu mehnat qurolining tarkibiy qismlarini bildirgan so'zlar o'q diametri bir metr va uzunligi ikki yoki uch metr bo'lgan to'sin. Bu to'sin uchiga pere mahkamlanadi. Pere bu o'q uchiga o'rnatilgan yog'ochlar paykop uchiga yanchish moslamasi majkamlangan to'sin bo'lib u ballast sifatida atag'achg'a yotiq o'rnatiladi. Soqi 4- 5 kg guruchga mo'ljallangan yog'och so'qi; soqi sap yoki kelsap yanchish moslamasi bo'lib u paykop uchiga o'rnatilgan, bir uchi qisman o'tkirlangan yumaloq to'sin uni oyoq bilan bosib yuqoriga ko'tariladi va qo'yib yuboriladi hamda u keliga urilib sholini yanchadi; Shapaq, basgin yoki basgi paykopni ishga tushirish uchun pillapoya hisoblanadi. Atag'ach bu paykop ostiga uni silkitish uchun o'rnatilgan to'sindir. Xachja yoki xechje bu ko'tarish moslamasini tutib turadigan tik to'sin hisoblanadi. Ilganchak tozalangan guruchni yig'ib olishda paykopni mahkamlash uchun o'rnatilgan temir ilmoq.

Xorazm viloyati Yangiariq tumani o'zbek shevalarida qishloq xo'jaligi leksikasida ekin maydoni va ekish ishlari bilan leksika ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu shevada atiz, pol "ekin maydoni", qarta "yuzi tekislangan

maydon'' yer ishlash: yer ishlav: yer ishlamak kabilar yerda ishlash jarayonini bildiradi. Yer achmaq ''yer ochish'', yer tekislarmaq haydalgan, shudgorlangan dalani ekish uchun tekislar. Qishloq xo'jalik texnika vositalarining kirib kelishi natijasida mazkur shevada yangi termin paydo bo'ldi: ishlangan yer bu agrotexnika qoidalari asosida ekishga tayyorlangan yer hisoblanadi, chel tartmaq:chel chekmaq sug'orish chog'ida bo'sh pastqam yerlarni mahkamlash, uvatlarni tuproq bilan ko'tarish; bo'zlaq 'unumdor yer', ayiq yer 'toza, sof yer', qumloq 'qum tuproqli yer', yer surmak' yer xaydamoq', yuqa ketmonlarmaq yerga ketmon bilan yuzaki ishlov berish, malalarmaq boronalarmaq, borona bilan shudgorlangan tuproq bo'laklarini maydalarmaq. Yerga ishlov berish bilan bog'liq ravishda shevalarga oid quyidagi so'z birikmalari paydo bo'lgan: yering : yering qaqirap qalishi, qatip qalmaq 'yerning qotib qolishi', yering cho'llap qalmaq 'yerning suvsirashi', tapqa kemak: tapa gelmak, tobiga kelmaq, sug'orishdan keyin yerni haydash uchun normal holatga kelishi, taptan chiqmaq bu tuproqning namlik darajasining qurib ketishi natijasida kesakli bo'lishi yoki haydash uchun yaroqsiz holga kelib qolishi, yering batqaqlanmaq bu yerning botqoqlashishi hisoblanadi.

Jo'xori va uning nomlanishi bilan bog'liq leksik- semantik guruhi

Xorazm shevalari leksikasida xorazmiy tili elementlari saqlanib qolgani, ularning tarixiy tavsifini turkiy tillar bilan ham, fors - tojik tili bilan izohlab bo'lmaydigan so'zlarda yaqqol namoyon bo'lishini F.Abdullayev, O. Madrahimov, A.Ishayev, Z .Do'simov kabi atoqli tilshunoslar o'z tadqiqotlarida ta'kidlaydilar. O'simlik nomlari leksikasida ham boshqa sohalar singari xorazmiy tili elementlari oz miqdorda bo'lsa ham uchraydi. Buni g'ovush, isvant, adrasman, xazarispanit so'zlari misolida ko'rib chiqishimiz mumkin.

Xorazm shevalaridagi g'ovush so'zi xorazmiy tiliga oid bo'lib, ikki komponentdan g'ov va ushtra qismlaridan iborat. Ma'lumki eroniy tillardagi "g" tovushi xorazmiy tilida "g" tarzida uchraydi. Buni g'ush-gush misolida ko'rishimiz mumkin. Ushtra komponenti Zaratushtra so'zining keyingi qismi bilan bog'liqligi sir emas. Bu komponentning qadimgi fors tilidagi "gaushta" so'zi bilan bog'liqligi ham ko'zga tashlanadi. M.Tillayeva, D.Yo'ldoshevlar eroniy tillarda bo'lgan fonetik o'zgarishlar xorazmiy tilida ham bo'lgan degan fikrni ilgari surib, so'z oxiridagi unlilarning tushishi (vaxishta – behisht, onu-ob kabi) hamda undosh tovush birikmalaridan birining ixchamlashishi natijasida "rt" birikmasining " t " yoki " r" ga o'tishini aytib o'tadilar. Bu fikrlarga hozirgi o'zbek adabiy tilida so'z oxiridagi yonma- yon kelgan undoshlarning so'z oxirida tushib qolishi hodisasini ham hisobga olsak, govushtra so'zi govushta // govusht// govush kabi fonetik o'zgarishlarga uchraganini ko'rishimiz mumkin. Ta'kidlash lozimki, Xiva xonlari arxivida g'ovush so'zi govush tarzida ham ishlatilgani yuqoridagi fikrlarni yana ham quvvatlaydi.⁴

Zaratushtra so'ziga qaytadigan bo'lsak, ayrim manbalarda bu so'zning ma'nosi "sariq tuya egasi" deb talqin qilinadi, ya'ni "ushtra" komponentini fors- tojik tilidagi "shutur" (tuya) so'zi bilan bog'liqligi ko'rsatib o'tiladi. Maxmud Zamaxshariy "Muqaddamat ul – adab" asarida "shutur" so'zining "tuya" ma'nosidan tashqari qoramol va qo'yning umumiy nomi ma'nosida ishlatilishini qayd qilib o'tadi.⁵ Bu hol eroniy tillarda "qoramol" ma'nosini anglatgan aynan "g'ov" so'zida ham ko'rinadi.⁶ Demak, gavushtra//g'avushtra

⁴ Yo'ldoshev M.Xiva xonligida feodal yer egaligi. Toshkent,1961. 128- bet.

⁵ Rustamov A. Maxmud Zamaxshariy. Toshkent, 1971. 17 – bet.

⁶ Rustamov A. So'z xususida so'z. Toshkent, 1987. 129- bet.

soʻzi qoramol maʼnosida yoki qoramollarning umumiy nomi sifatida ishlatilgan. Keyinchalik bu soʻz maʼno koʻchish asosida oʻsimlik nomiga koʻchgan. Z. Doʻsimov bunday asosda yasalgan nomlarni onamastik konversiya usulida soʻz yasalihi deb izohlaydi.⁷

Isvant soʻzi “Devoni lugʻotit- turk” da isiriq, yizigʻ oʻt deb berilgan. Maxmud Qoshgʻariyning yozishicha, isiriq bolalarning boshlariga toshadigan yaralarni yoki koʻz tegishidan ularni davolaganda aytiladigan soʻz; tutatiladi va bolaning yuziga tutuni “isiriq- isiriq” (ey jin, es- hushingni yoʻqot) deb tutiladi.⁸ Xorazm shevalaridagi isvant tarixiy- etimologik tavsifi uning Xorazmning qipchoq lahjasi vakillari nutqidagi aynan “isiriq” maʼnosidagi adrasman//adraspan soʻzi bilan qiyoslash orqali oydinlashadi. Adrasman soʻzidagi adra// atra eroniy tillarda adar//atar//azar (“z” tishora) boʻlib, olov maʼnosiga ega va hozirgi fors, tojik, dariy tillarida ozar shaklida ishlatiladi. Zardushtiylarning olov posboni oturbon deb yuritilib, bu soʻzning birinchi komponenti adra// atra bilan bogʻliq.⁹ Soʻzning ikkinchi komponenti “sipanta” boʻlib, asl lugʻaviy maʼnosi “oq” boʻlgani holda maʼno koʻchishi (metafora) natijasida ezgu, muqaddas kabi maʼnolarni anglatadi.¹⁰ Demakki, adrasman// asdaspan aynan ezgu olov maʼnosini anglatadi. Bu soʻz ayrim oʻzbek shevalarida xazarispant shaklida ham ishlatiladi va bunda soʻz boshida boʻgʻiz undoshining orttirilishi yoki tushib qolishi turkiy tillarda ham koʻp kuzatiladigan fonetik hodisadir. Masalan, xatla (oʻzbek adabiy tilida) // atla (Xorazm shevalarida). M.Isxoqov olov maʼnosidagi adar // azar // xazar soʻzini

⁷ Doʻsimov Z. Xorazm toponimlari. Toshkent, 1985. 42 – bet.

⁸ Qoshgʻariy M. Devonu lugʻotit- turk. Tom 3. Toshkent, 1961. 19- bet.

⁹ Avesto. Tarixiy- adabiy yodgorlik. Asqar Mahkam tarjimasi. Toshkent, 2001. 326- bet.

¹⁰ Rustamov A. Soʻz xususida soʻz. 129- bet; Avesto. 303- bet.

Xazorasp toponimi tarkibida ham bor, deb hisoblaydi. Qisqacha xulosa o‘rnida aytish mumkinki, isvant // adrasman // adraspan // xazarispant so‘zlari ayni bir so‘z bo‘lib, isvant so‘zida uning birinchi (aniqlanmish) qismi qisqargan va sifatning o‘zi ot vazifasini bajargan. Bu jarayon ancha oldin yuz berganini mazkur so‘zning Navoiy asarlarida “ isiriq” ma’nosida “ sipant” shaklida ishlatilgani ham ko‘rsatadi:

Ul oy o‘tlug’ yuzin ochsa, Navoiy tegmasun deb ko‘z

Muhabbat tuxmidin o‘zga ul o‘t uzra sipand etmas.¹¹

Yuqoridagi misollardan ko‘rinib turibdiki, xorazmiy tilining fonetik tizimi boshqa eroniy tillarning fonetik tizimidan keskin farq qilmaydi. Ana shuni e’tiborga olib, fors, tojik, dariy tillarida “kadu” shaklida bo‘lgan oshqovoq ma’nosidagi so‘zni Xorazm shevalari uchun o‘zlashma deb baholash unchalik to‘g‘ri emas. Chunki, ilmiy nomi cucurditacees bo‘lgan mazkur so‘z ko‘pchilik eroniy tillarda bir- biriga yaqin fonetik shakllarda, jumladan , gilon tilida kuiy, sangsariyda kaxu, surxaida kadu, shaxmirzodiy tilida Xorazm shevalaridagi kabi kadi shakllarida ishlatiladi. Demak, xorazmiy tilining elementlari Xorazm shevalaridagi o‘simlik nomlari tarkibida oz miqdorda bo‘lsa ham saqlanib qolgan.

O‘rta Osiyoda ikki-uch ming yildan beri jo‘xori yetishtiriladi. Tarixiy manbalardan ma’lum bo‘lishicha , jo‘xori O‘rta Osiyoga Hindistondan keltirilgan. Bu qishloq xo‘jalik ekini nomining kelib chiqishi haqida aniq ma’lumotlar yo‘q. Hindistonda ham ana shu o‘simlikni anglatgan jovar termini mavjud. Jo‘xoring Hindistondan keltirilganligi ham ushbu farazni tasdiqlaydi. Jo‘xori Qoraqalpog‘istonda, Janubiy Xorazm va Shimoliy Turkmaniston yerlarida ko‘plab yetishtiriladi. Jo‘xori o‘simligi asosan Xorazm viloyati hududida keng tarqalgan.

¹¹ Alisher Navoiy. MAT. Tom 1. Toshkent, 1987. 223-bet

Ushbu leksikani shakllantirishda turli-tuman soʻz yasash usullari ishtirok etib bunda leksik-semantik usul, ayniqsa, faol oʻrin tutadi. Xorazm viloyati Yangiariq tumanida joʻxorining yuqori hosildor, mahalliy iqlim sharoitiga chidamli navlari ham yaratildi. Yangiariq tumani Gullanbogʻ qishlogʻida joʻxorining naviga koʻra quyidagi nomlari mavjud: bey juvari, jasmiq (joʻxorining boshi yalpoq, ertapishar, xosili birmuncha kam navi) , yergilikli juvari (mahalliy joʻxori); joʻxori boshining shakliga koʻra: iymak bas, qochqar shax, yalpaqbash, qatti bash kabilar kiradi. Yangiariq tumani Gullanbogʻ qishlogʻida joʻxorining asosan uch navi yetishtiriladi: alti ayliq, tort ayliq, uch ayliq. Nav nomlarida joʻxori donining yetilish vaqti aks ettirilgan. Alti ayliq joʻxori navida uzunligi yetti-sakkiz boʻgʻimga yetadi, soʻtasi (boshi) yirik, ilgaksimon shaklda boʻladi. Ushbu nav nomi koʻpchilik yerlarda tarqalgan, shuningdek, matqayir juvarining boʻyi uzun boʻlmagan, lekin hosili juda moʻl navi. Matqayir joʻxori nomi xalq seleksioneri Mammet (Muhammad) yoki Matning ismiga qoʻyilgan. Yana joʻxorining quyidagi nomlari ham qayd qilinadi: uch buvim, tik bash, (tik bosh) , yalpaqbash (bu nomlar asosan soʻta shakli bilan bogʻliq) yana qizil juvari , oris juvarisi kabi nomlari ham mavjud. Qizil juvari nomi joʻxori donlarining rangi qizilligi bilan bogʻliq. Nayman qishlogʻida endigina unib chiqqan joʻxori toʻgʻrisida juz alipti (yuz koʻrsatdi) tuydukled uch - toʻrt barg chiqarish davri; uchurmak yoki quvrap qalmaq suv yetishmasligi yoki kasallik tufayli barglar yo yetilmagan hosilning qurib qolishi yoki toʻkilishi; xarlamaq (jadal oʻsish) kabi soʻzlar qoʻllanadi. Joʻxori tolasida shakar koʻp boʻlgan navi: balchingirik yoki baljovent ‘asal joʻxori‘ qant palach, shakar chingirik, balpalach kabi variantlari uchraydi. Joʻxorining oʻsish bosqichlari ham alohida nomlar bilan ifodalanadi: qoʻchqar shax bomaq: gʻoʻchshax boʻmaq. Ekilganiga yigirma yoki yigirma besh kun boʻlgan joʻxorini kichchi qochqar, qirq kundan esa ulli:ulqan qochqar deyilar. Bu terminlar joʻxori barglarining qoʻchqor shoxiga oʻxshashligi

tufayli metafora usuli yordamida hosil bo'lgan. Bo'yi 7-10sm bo'lgan jo'xori o'simligi xo'raz batir deb atalsa, jo'xori poyasining 25-30smli qoldig'ini do'mbiq:tommuq deyдилar uning to'ngraq varianti ham bor. Do'mbiq:tommuq quyidagi ma'nolarni anglatadi: 1) jo'xorining bo'yi taxminan 50 smga yetganda tubiga bo'sh g'ovak tuproq uymoq; 2) madaniy ekinlarni begona o'tdan tozalashda har kimga ajratib berilgan maydonning bir-biridan chegarasini ajratish uchun uyilgan tuproq uyumi yoki biror belgi. Dombiqlavga yoki tommuqlamaqqa yaramaq jo'xori bo'yi taxminan 50 smga yetganligini bildiradi. Bog'img'a minmak bu jo'xorining rivojlanish bosqichi hisoblanadi. Bachka bu jo'xori o'simligining ildizi yaqinidagi yonboshga o'sgan shoxchalari, o'simalari. 1) me'yoridagi zichlikka erishish uchun qo'shimcha jo'xori ekish; 2) siyrak o'sayotgan jo'xorida kichik, bachki shoxlar chiqishi; 3) jo'xori poyasining tashqi yupqa qatlami. Jo'xori bargi yelek nomi bilan ham ataladi. Yelaklamak: yeləmlamak bu jo'xori poyasini barglardan tozalash jarayoni. Jo'xorining barg va shox chiqarishi go'lchalamak so'zi bilan yuritiladi. Jo'xorining yetilish bosqichlari bo'g'urdaqlamaq bo'g'aklamak:bo'g'urdaq bo'maq jo'xori so'talarining yakkam-dukkam paydo bo'lishi; juveri bashlamak jo'xori so'tasida don boshchalarining paydo bo'lishi ekper deb yuritiladi (uning paydo bo'lish bosqichi yəkəvər bo'lmaq, yəkəpərə minmək bosqichi deb aytiladi). Bu yakka so'zining fonetik o'zgarishga duch kelgan varianti. Yaxshi ishlov berilgan baland bo'yli jo'xorining asosiy urug'lik so'tasida boshchalar yuzaga kelishi jig'a, mayda don boshchalarining o'sib chiqishi jig'alamaq deyiladi. Shu bilan birga jo'xoriga ishlov berish bilan bog'liq dombiq so'zi ma'nosini aniqlab keladigan so'zlar ham mavjud: tommuqlamaq bu jo'xori o'simligining atrofida bo'sh g'ovak tuproqni to'plash jarayoni. Tommuq etmek yoki tommuqlamaq bu egat olmoq jarayoni hisoblanadi. Tombuq qaqmaq bu jo'xori poyasi qoldiqlarini yig'ib olish jarayoni hisoblanadi. Tombuq chapmaq bu ketmon bilan yerda qolgan jo'xori

poyasini chopib tashlash jarayonini ifodalaydi. Yana jo‘xori ekiniga ishlov berish bilan bog‘liq lug‘aviy birliklar salmoqli o‘rin tutadi. Masalan: daris bu mahalliy o‘g‘it, qiy bu qo‘y-echkilarning go‘ngi, jeya tartmaq bu egat yoki jo‘yak olish jarayonini ifodalaydi. Joya tekislemek bu egat yoki jo‘yakni tekislash jarayonini ifodalaydi. Aziqlantirmaq yoki dokunlamak bu jo‘xorini parvarish qilish jarayonidagi o‘g‘itlash ya‘ni mineral yoki kimyoviy o‘g‘it berish jarayoni tushiniladi. Sherbat suv bu mahalliy yoki mineral o‘g‘itni suvga aralashtirib berish jarayonini ifodalaydi. Yangiariq tumanida jo‘xorini begona o‘tlardan tozalash jarayoni o‘toq deb nomlanadi. Jo‘xori zich joylashgan joylarni yagonalash jarayoni seyraklamok deb nomlanadi. Bundan tashqari donning boshhoqlarda shakllanishi va yetilishi jarayonini ifodalaydigan kasbiy tushunchalar bor: chuyje bash bu jo‘xorining qalin ko‘karib chiqishi natijasida jo‘xori boshining mayda bo‘lishi; chimchiq koz bolmaq jo‘xori boshining dastlabki hosil tuga boshlash jarayoni; baliq koz bolmaq bu jo‘xori boshi donining oqarib pisha boshlashi; sut amaq bu jo‘xori boshining yetilib pishishidan oldingi holati. Suyt amaq; qushkoz bo‘maq o‘simliklarning gullash davri; tovshangöz bo‘maq jo‘xori so‘tasi donining to‘liq shaklga kirishi; qangraq; gangraq; chekgəldak, chekildək so‘tani jo‘xorining so‘nggi bo‘g‘imi bilan bog‘langan poya qismi.

Boshhoqli o‘simliklarga nisbatan bash so‘zi boshhoqni, jo‘xorida esa so‘tasini bildiradi. Bu so‘zning ma‘nosiga so‘ta so‘zini ifodalash uchun anqlik kiritiladi: aqbash bu yetilgan so‘ta, chala bash bu esa yetilib pishmagan boshi, qarabash bu zamburug‘ tushgan so‘ta, kokbash bu esa pishmagan yetilmagan so‘ta, qurtli qarabash bu kasallikka chalingan so‘ta ya‘ni bular sifati turlicha so‘talar sanaladi. Bosh so‘zi, shuningdek, boshhoqli ekinlar va ekinlarning yetilishi va ularni yig‘ib olish jarayonini nomlaydigan yasama so‘z va murakkab terminlar hosil qilishda faol ishtirok etadi. Jumladan : bash qayirmaq bu so‘z jo‘xori so‘tasini uzib

olish jarayonini ifodalaydi, bosh kesmak (bosh uzmoq) , bosh almaq bu kesilgan jo‘xori so‘tasini va uni bir joyga yig‘ishni, to‘plashni ham ifodalaydi. O‘rib olish jarayoni bilan bog‘liq quyidagi so‘z va so‘z birikmalari mavjud: taba 1) egat; 2) qator; 3) bir boshdan tartib bilan o‘rish; taba surmæk bu o‘rish uchun jo‘xori yoki bug‘doy qatorini ajratish hisoblanadi. Poya boshqoli ekinlarni o‘rish paytida o‘rilgan yoki kesilgan bir qism o‘simlik tanasi. Taxiyyatosh, Xo‘jayli-qipchoq va Qo‘ng‘irot shevalarida ana shu ma'noda pændjəm so‘zi qo‘llanadi. O‘zbek shevalarida g‘aramni joylash usuliga qarab turlarini farqlaydilar: dastalari tik joylashgani-cho‘mmaltma gudi; dastalari yotiq qo‘yilgani yatiq, gudi; gudiləmək bu o‘rilgan dastalarni bir joyga to‘plash yoki o‘rilgan jo‘xori poyasini yo boshqa o‘tni g‘aramlamoq; bellik 1) o‘rilgan dastalarni shamol uchirib ketmasligi uchun bir-birining ustiga yotqizib qo‘yish; 2) palto yoki kostyumning beliga qo‘yilgan, tikilgan mato; 3) uyning ustiga qo‘yilgan uzun yog‘ochning egilib ketmasligi uchun o‘rtasidan tik tirab qo‘yilgan poyustun; парч етмæk o‘rilgan dastalarni zichlash, mahkamlash .

Yangiariq tumani Gullanbog‘ qishlog‘ida boshqa ehtiyojlar uchun ham ekiladigan jo‘xori navlari mavjud. Masalan oq jo‘xorining mollarga ozuqa uchun ekiladigan navi g‘avush deb nomlanadi. Mazkur so‘zning kelib chiqishi haqida ba'zi fikr-mulohazalar mavjud bo‘lib, u qadimgi Xorazmiylar tiliga oid deb ko‘rsatiladi. Eroniy tillardagi gov va uttra qismi zaratushtra so‘zi bilan bog‘liqligini isbotlashga harakat qilinadi. Bu tarkibiy qismning qadimgi fors tilidagi "gaushtra" so‘zi bilan bog‘liqligi , forsiy tillarda bo‘lgan fonetik o‘zgarishlar qadimgi Xorazmiylar tiliga ham xos ekanligi D.Yo‘ldoshev tomonidan atroflicha bayon etilgan."Fors tilidagi gov so‘zi boshidagi g undoshi qadimgi

xorazmiy tilida g□undoshi bilan almashingan."¹² Zaratushtra soʻzining " sariq tuya egasi" ma'nosi, ushtra komponentining fors-tojik tilidagi " shtur" (tuya) soʻzi bilan aloqadorligi ayrim manbalarda talqin etiladi. Zamaxshariyning " Muqaddimat ul adab" asarida shtur soʻzining tuya ma'nosidan tashqari, qoramol va qoʻyning umumiy nomi ekanligi izohlanadi. Bu hol forsiy tillarda qoramol ma'nosini anglatgan gov soʻzida ham koʻrinadi. Demak, gavushtra, gʻavushtra soʻzi qoramol yoki qoramolning umumiy nomi ma'nosida ishlatilgan . Keyinchalik bu soʻz ma'no koʻchishi asosida oʻsimlik nomiga koʻchgan . Xiva xonlari arxivida govush soʻzi govush tarzida qayd qilinishi yuqoridagi fikrlarni tola tasdiqlaydi. Demak, bu fikrlarga hozirgi oʻzbek tilida soʻz oxiridagi yonma-yon kelgan undoshlarning soʻz oxirida talaffuzda tushib qolishi va metateza hodisalarini ham hisobga olsak, govushtra soʻzi govushta, govusht, govush, gʻavush kabi fonetik oʻzgarishlarga duch kelgan. Chingirik bu joʻxorining quruq poyasi hamda bargsiz tanasiga nisbatan aytiladi. Bøke - joʻxorining boʻgimi. Bøkalak bu joʻxori tanasidan uzilib qolgan mayda quruq boʻgʻim boʻlib bunda -alak qoʻshimchasi kichraytirish formasidir. Joʻxorining supurgi yasash uchun ekilgan navi supsøtari deb nomlanadi. Joʻxori asosan Amudaryoning quyi qismida yetishtiriladi, uning navlari va yetishtirish jarayoni bilan bogʻliq kasbiy soʻzlar Xorazm viloyati hududida keng tarqalgan. Ushbu leksikani shakllantirishda turli-tuman soʻz yasash usullari ishtirok etib, bunda leksik-semantik usul, ayniqsa, faol oʻrin tutadi. Xorazm viloyati Yangiariq tumanida joʻxorining yuqori hosildor, mahalliy iqlim sharoitiga chidamli navlari ham yaratildi. Ularning har biri tegishli nomiga ega.

Xorazmning turli tumanlarida mahalliy metereologik va geografik sharoitlardan kelib chiqib, tegishli tarzda nomlangan don saqlashning turli usullari ixtiro etilgan.

¹² Yoʻldashev M. Xiva xonligida feodal yer egaligi. Toshkent: 1961. 128 bet

Don asosan qoplarda, ombor va maxsus o'ralarda saqlangan. Sheva vakillari don saqlagichning hajmi, shakli va materialiga ko'ra, quyidagi turlarini farqlaydilar: санач: чанач bu echki terisidan tikilgan kichik qop; buvma:buvmaq oxirigacha to'ldirilmagan og'zi bog'liq qop; qanar bu chuval, qalin bo'z yoki matodan tikilgan katta qop bo'lib u 80-100 kg don uchun mo'ljallangan hisoblanadi; to'r bu oq jo'xori boshi yoki somonini solish uchun mo'ljallangan to'r hisoblanadi. Bularning barchasi jundan to'r□qiladi. Xorazmda o'zbek shevalari hamda Shimoliy Turkmanistonda atalar o'kuzlar, chavdur qabilalarida don saqlash maqsadida yerdan qazilgan tandir shaklidagi maxsus ombor mardan:bardan deb ataladi. Donni namgarchilikdan saqlash uchun mardonning tagi va devorlariga qoplanadigan qalin bo'yra qalaq deb nomlanadi. Xorazm viloyati Yangiariq tumanida o'zbek shevalarida ham bo'yra qamishdan to'qilgan to'shamani bildiradi. Bu Xorazmning ba'zi joylarida chiy ham deb nomlanadi. Xorazm viloyati Yangiariq tumani hududida qadimdan bo'yra to'qish kasbi keng tarqalgan. Shu boisdan bo'yrachi etnonimi va oykonimi, gidronimi ko'p uchraydi. Don saqlash uchun mo'ljallangan maxsus binolarni: g'allaqan:g'allaxana:g'ellotam (bular g'allaxona, ombor ma'nolarini anglatadi) deb ataladi. Xorazmda ikki qavatli uy qurilib, ikkinchi qavatida don saqlangan, buni talak ya'ni bolaxona deb nomlashadi. Uning birinchi qavati yashash uchun mo'ljallangan, yanada kichikroq bo'lmalarni axir 'oxur' deb nomlanadi. Har bir oxurda muayyan don turi saqlanadi. Bu so'z molxonadagi mollarga ozuqa berish uchun mo'ljallangan maxsus joy; o'ra: ura, o'ra bu bug'doy, arpa, kunjut saqlash uchun maxsus qazilgan chuqur, turkman tilida o:p va opaya, mo'g'ul tilida esa uruu past, quyi, pastlik ma'nolariga ega. Bu so'zni genetik jihatdan mo'g'ul tiliga aloqador deb hisoblaydilar. Lekin shevashunos olimi G. Saparova mazkur so'zni mo'g'ul tilidan o'zlashgan yoki turkiy tillardan mo'g'ul tilidan o'zlashgan yoki turkiy tillardan mo'g'ul tiliga o'zlashgan deb aytish uchun

asos yo‘q, chunki ham turkiy tillar, ham mo‘gul tilida o‘xshash negiz elementlariga ega. Bu hol mazkur tillar o‘rtasida tarixan genetik aloqa mavjudligidan darak beradi, deb izohlaydi. Mahmud Qoshg‘ariy lug‘atida, Zamaxshariyda oshliq urusi, Qoraqalpog‘iston o‘zbek shevalarida tölə: dölə ‘yerto‘la‘ so‘zi mavjud bo‘lib, u tepasi kigiz bilan yopiladigan o‘ra ko‘rinishidagi uy, binoni anglatgan. Hozirgi vaqtda tölə so‘zining ma'nosi birmuncha kengaygan, ya'ni ruscha склад so‘zi o‘rnida ham ishlatiladi. Qadimda yerto‘ladan kishilar turarjoy sifatida ham foydalangan. Hozir ham ba'zi dehqonlar dasht joylarda ekin maydonlari boshida yerto‘ladan turarjoy o‘rnida foydalanadilar. To‘rtko‘l, Ellikqal'ada o‘ra ma'nosida quyidagi so‘zlar ishlatiladi: лағым(lahim): o‘ra 1) og‘zi tor, ammo ichi keng qilib, tog‘dagi lalmi ekinlar hosilini to‘ng‘izlardan asrash uchun qazilgan o‘ra; 2) qabr.O‘zbek shevalarida g‘aramni joylash usuliga qarab turlarini farqlaydilar: dastalari tik joylashgani-cho‘mmaltma gudi; dastalari yotiq qo‘yilgani - yatıq:jatıq gudi; gudıləmək bu o‘rilgan dastalarni bir joyga to‘plash yoki o‘rilgan jo‘xori poyasini yo boshqa o‘tni g‘aramlamoq; bellik 1) o‘rilgan dastalarni shamol uchirib ketmasligi uchun bir-birining ustiga yotqizib qo‘yish; 2) palto yoki kostyumning beliga qo‘yilgan, tikilgan mato; 3) uyning ustiga qo‘yilgan uzun yog‘ochning egilib ketmasligi uchun o‘rtasidan tik tirab qo‘yilgan poyustun; parch etmək o‘rilgan dastalarni zichlash, mahkamlash .

Boshqoli ekinlar orasida makkajo‘xori eng qadimgilaridan biri hisoblanadi. Uning kelib chiqishi, madaniylashtirilishi va tarqalishi ko‘pgina olimlar e'tiborini jalb etgan. Makkajo‘xorining vatani Amerika hisoblanib bu ekin Amerikadan boshqa mamlakatlarga ham tarqala boshlagan. Buni ushbu fakt ham tasdiqlaydi: bugunda Meksika hududida yashab kelayotgan mayya hindulari miloddan besh ming yil avval boshqa donli o‘simliklar bilan birga makkajo‘xorini ham muvaffaqiyat bilan madaniylashtirgan. Qishloq xo‘jaligiga oid adabiyotlar ham

qadimgi Meksikada makkajo‘xori yetishtirilganidan dalolat beradi. Makkajo‘xorining ba’zi navlari Peruda miloddan ancha ilgari ekilgani ma’lum. Makkajo‘xorining boshqa materiklar bo‘ylab tarqalishi Amerikaning Xristofor Kolumb tomonidan kashf etilishi bilan bog‘liq. Buyuk sayyoh 1492-yili Karib dengizidagi orollarni topib va mahalliy aholining turmush tarzi bilan tanishganidan so‘ng mahalliy aholi unga noma’lum bo‘lgan boshoqli ekin yetishtirganligi to‘g‘risida xabar qiladi. U tomonidan keltirilgan makkajo‘xori urug‘i uning Yevropada o‘zlashtirilishiga olib keldi. XVI asr boshida u Afrikaning ba’zi mamlakatlari hamda Hindistonda, 1575-yildan boshlab Xitoyda ham jadallik bilan tarqaldi. Rossiyaga makkajo‘xori Gruziya orqali yetib kelgan. Makkajo‘xori oq jo‘xoriga yaqin bo‘lgan so‘tali ekin hisoblanadi. Shuning uchun ko‘pincha uni hind tarig‘i, hind bug‘doyi, Osiyo bug‘doyi, Baqtriya bug‘doyi deb ataydilar.¹³ Italiyada hali ham makkajo‘xorini turk bug‘doyi deb atasalar, qirim tatarlari unga Misr bug‘doyi deb nom berganlar. Turkiyada ham makkajo‘xorining vatani Misr deb ko‘rsatiladi. Makkajo‘xorining O‘rta Osiyo, xususan, Xorazmda tarqalish manbayi va vaqtiga oid ishonarli ma’lumotlar mavjud emas. Ammo olimlar farazicha, makkajo‘xori arab mamlakatlaridan kelgan bo‘lsa ajab emas. Uning o‘zbekcha nomidan ham ko‘rinib turibdi " Makkadan keltirilgan jo‘xori", ozarboyjon tilidagi sheva varianti xojibug‘da ham shunga ishora bor. Makkajo‘xori doni islom markazi Makkaga haj safariga borgan hojilar tomonidan olib kelingan bo‘lishi ham ehtimoldan holi emas. Yangiariq tumani Gullanbog‘ qishlog‘i shevasida makkajo‘xori makka tarzida aytiladi. Makkajo‘xorining hosil beradigan bosh qismi so‘tasi ya’ni donli qismi pachatka , pachatki, sota leksemalari bilan nomlanadi. Tayaq yoki sota bu makkajo‘xorining doni olingandan keyin qolgan o‘zagi. Qozoq

¹³ Golodkovskiy V. A. Makkajo‘xori taksonomiyasi. Toshkent: Fan, 1966. 191 bet

xalqining " Alpamis batir hikayasi"nda sota botirlarning bo'yniga osib yuradigan tayoq yoki cho'qmorga o'xshash quroli ma'nosida uchraydi: Moynindagi sotasimen  rqaysisin bir saldi.¹⁴ Makkajo'xori so'tasining hali pishib yetilmagan so'tasi sutak yoki sutli deb nomlanadi. Makkajo'xorining popugi shevalarda sacha , chacha , chach so'zlari bilan ifodalanadi. Sacha , chacha  so'ziga p   k so'zi sinonim tarzida ishlatiladi.

2.2. G'allakorlik leksemasining semantik o'zgachaliklari

Bug'doy eng qadimiy o'simliklardan biri hisoblanadi. Bug'doyning (*triticum*) 22 turi mavjud bo'lib, shundan bizda ham, chet mamlakatlarda ham asosan ikki turi: yumshoq va qattiq bug'doy keng tarqalgan (Qattiq bug'doy ham yumshoq bug'doydan keyin ikkinchi o'rinni egallaydi. Doni yirik oqrangda, yaltiroq, tarkibida oqsil miqdori 18-20% gacha bo'lishi mumkin. Qattiq bug'doy doni kuchli bug'doylar turiga kiradi. Undan bolalar ovqati, makaron, pechenye tayyorlashda va boshqa unlarni yaxshilovchi sifatida foydalaniladi. Qattiq bug'doy asosan bahorgi. qiltikli, boshqochalari boshqoda zich joylashgan bo'ladi. Ishlab chiqarishda ekiladigan yana bir tur bug'doy turg'idum bug'doyi, ayrim belgilari bo'yicha qattiq bug'doyga yaqin turadi. Zakavkazye respublikalari va markaziy Osiyoda bug'doyning mahalliy navlari orasida uchraydi. Sug'oriladigan yerlarda o'sadigan bu bug'doy issiq iqlimga yaxshi moslashadi. Uning shoxlangan boshqoi formalari bo'lib, ular bir paytlar olimlar e'tiborini o'ziga jalb etgan. Bugungi kunda turg'idum turidan yaratilgan navlar Misr Arab Respublikasida, Iroqda ko'plab ekilmoqda. Bir vaqtlar uni yemon nonining sifati past deyilardi, seleksiya ishlarini

¹⁴ Berdiyev O. va boshqalar. Drevneyshie zemledelisi Yujnogo Turkmenistana. Ashxabad: 1970. 364 bet.

to'g'ri yo'lga qo'yilishi yangi navlarni vujudga keltiradi. Qattiq bug'doyga o'xshash urug' olindi. Doni oq, noni ham oppoq so'lgildoq. Uning kelib chiqishi haqida olimlarning ko'plab taxmin va farazlari mavjud. Olimlarning fikriga ko'ra, Osiyo va Yevropaning janubi hamda Shimoliy Afrikadagi yovvoyi bug'doy donlaridan tarqalgan degan taxminlar mavjud. Bug'doy haqida "Qur'oni karimda" ham keltirilgan Bug'doy mojarosini eslash kifoya. Bug'doy so'zi Xorazm viloyati Yangiariq tumanida bug'doy, Qoraqalpog'iston o'zbek shevalarida turli fonetik variantlarda uchraydi: buvdoy: bo'day (Mang'it, Beruniy shevalarida): biday(Qonliko'l, Sho'manay, Nukus shevalarida): bo'day (To'rtkul va Ellikqala shevalarida). Shuningdek, qoraqalpoq, qozoq biday, turkmancha bo'day shaklida shevalarda ishlatiladi. Xorazm viloyati Yangiariq tumani shevasida esa big'day: bug'doy shaklida ishlatiladi. Bug'doyning tur va navlari turlicha nomlanadi: o'simlik va donning rangiga ko'ra: oq bug'doy va qizil bug'doyga bo'linadi. Bug'doy unining sifatiga ko'ra: ussiz buvdoy xamiri shirasiz chiqadigan bug'doy navi ; yumshaq buday yumshoq bug'doy va hokazo. Bug'doy so'zi quyidagi turli atamalar va frazeologik iboralar uchun asos vazifasini bajarib keladi: buday atiz 'bug'doyzor yoki bug'doy dalasi', buday naning bo'lmasa, buday so'zing joqma? (Maqol) va boshqalar. Bug'doyning fors tilidagi nomi gendum ba'zan xalq og'zaki ijodida uchrab turadi.¹⁵ Yumshoq, yoki oddiy bug'doy, qattiq bug'doy, xalq xo'jalik ishlab chiqarishga yana turg'idum bug'doyidan ham foydalaniladi, boshqa bug'doy turlaridan yangi navlar yaratishda hamda seleksion ishlarda foydalaniladi Biologik xususiyatlari. Kuzgi bug'doy navlari tuproq iqlim sharoitiga qarab biologik xususiyatlarida albatta o'zgarishlar bo'ladi. Urug'lari 1-2°C haroratda una boshlaydi, ammo maysalarning qiyg'os unib chiqishi uchun harorat yoqori 10-

¹⁵ Alpomish botir hikoyasi. Alma-ata:1963. 324 bet.

12°C bo'lishi kerak, past haroratda maysalarning unib chiqishi cho'ziladi, urug'lar chirib ketishi mumkin. 10- 12°Cda maysalar 10-12 kunda, 14-16°Cda esa. 7-9 kunda unib chiqadi. Ekilgandan unib chiqqunga qadar foydali harorat yig'indisi 120- 140°C bo'lishi kerak Unib chiqqaniga 12-16 kun o'tgan, havo harorati yetarli bo'lsa to'plash fazasi boshlanadi va bug'doyda bu faza 40-45 kun davom etadi. Yakka donli madaniy bug'doy, zanduri, qush donli, polba, dika, turgidum bug'doy, sershox boshq. Kuzda havo harorati past yoki tuproqda namlik yetishmasa albatta yaxshi to'plamaydi, bahorga borib nam bo'lishi va harorat ko'tarilgandan so'ng yana to'play boshlaydi. To'plash soni o'simlikning siyrak yoki qalin ekilganiga ham bog'lik siyrak ekilsa tup soni 6-7 donaga yetadi. Bahorda azotli o'g'itlar bilan oziqlantirishi tup sonining oshishiga olib keladi. Qulay sharoitlarda 15-20 tagacha tup hosil qiladi. Qish kelishi oldidan har bir maysa fiziologik jihatdan qattiq sovuqlarga tayyorgarlik ko'radi. Hujayra shirasida suvlar kamayib uglevod yoki oligosaxaridlar hosil bo'ladi. Ma'lumki, qattiq sovuqlarda xujayra shirasida suv bo'lsa muzlab qoladi. Qish payti kuzgi bug'doy uchun deyarli xavfli emas, hozirgi navlar sovuqqa juda chidamli ular tushlash bo'g'inida 18-20°C sovuqqa ham bardosh beradi. Bahor ancha xavfli hisoblanadi. Ob-havoning bir isib, bir sovushi masalan kunduzlari 8- 10°C issiq va kechalari 8- 10°C sovuq bo'ladi. Mana shunday haroratning keskin almashinuvi albatta hujayralarni harakatga keltiradi va oqibatda ularning muzlashiga va sovuqdan nobud bo'lishiga olib keladi. Keyingi yillar Krasnodardagi P. I. Luk'yanenko nomli institutda hosildor va sovuqqa chidamli navlar yaratildi ular qor tagida 30°C sovuqqa ham chidaydi. Kuzgi bug'doyning navbatdagi fazasi naychalash (nayga) tortish) bahorgi o'sish boshlanganiga 15-20 kun bo'lganda boshlanadi. Boshqodosh fazasi esa naycha tortish fazasidan 25-30 kun o'tgach boshlanadi, gullash va boshq tortish fazalari bir-biriga juda yaqin muddatga o'tadi, gullash 7-10 kunda tugaydi. Bug'doy

o'zidan changlanadi. Donning shakllanishi, to'lishishi va pishishi uchun yana 25-30 kun kerak. Ammo havo harorati yoqori bo'lgani uchun bu muddat yanada tezlashishi mumkin. Odatda, havo salqin, seryog'in bo'lsa kuzgi bug'doyning o'suv davri cho'ziladi. Kuzgi bug'doy navlari uchun ekilgandan pishguncha foydali harorat yig'indisi 1700- 2100°C bo'lishi kerak O'sis davri o'rtacha 240-260 kun. Kuzgi bug'doy issiqqa va qurg'oqchilikka chidamli. Tuproqdagi namni juda tejab ishlatadi, o'sish davrining boshi va oxirida nanga talabchan emas. Bug'doy o'sish davrida namni bahorgi o'sish davridan boshhoqlaguncha bo'lganda ko'p talab qiladi, lekin 70% namlikni shu paytda o'zlashtiradi. Mana shu vaqtda nam bilan 30 ta'minlanmaslik hosildorlikning kamayishiga olib keladi. Gullash va pishish fazasida jami zarur bo'lgan namning 20% ini iste'mol qiladi.

Bug'doyning ba'zi ular dastlab ekila boshlagan joy nomi bilan ham ataladi: gurgan buday 'gurganch bug'doyi', puxar buday 'buxoro bug'doyi', jaydori buday har yerda ham bug'doyning mahalliy navini anglatgan. Ba'zi nav nomlari esa etnik xususiyatlarini ham o'z ichiga olgan: turkmen buday 'turkman bug'doyi', oris buday 'rus bug'doyi'. Bug'doyning ba'zi navlari boshhoqlari va donining rangiga ko'ra nom olgan. Masalan, donining rangiga ko'ra mazkur bug'doy navlari farqlanadi: aq yazliq 'oq yozgi', qizil yazliq 'qizil yozgi' va boshqalar. Yana sgevalarda quyidagi navlar ham qo'llanadi: qaraqilchiq 'qora qiltiqli bug'doy', aq xo'sha 'oq boshog', qizil xo'sha 'qizil boshog', qizilja 'qizilcha'. Ushbu terminlar anglatgan bug'doy navlari, asosan, Rossiya va Qozog'istondan keltirilgan navlar hisoblanadi. Bug'doyning ba'zi navlari esa navining shakliga ko'ra ham nom olgan: ermebash 'yozgi bug'doyning mahalliy navi'. Bu navning boshhoqlari arpa boshog'iga o'xshaydi; to'qmaqbash navi asosan tukli, o'rama boshog'li bug'doy naviga nisbatan ishlatiladi. Ekish vaqtiga ko'ra bug'doy navlari ham farqlanadi. Asosan quyidagilar farqlanadi: kuzlik: guzlik buday, yazliq buday kabilarga

bo‘linadi. Kuzgi bug‘doy qishki bug‘doy deb ham yuritiladi. Dunyoda bug‘doyning uch yuzdan ortiq navlari yaratilgan bo‘lib, ular baxorgi va kuzgi bug‘doylarga bo‘linadi. Bahor faslida ekilgan bug‘doyni bahorgi bug‘doy deyiladi. Kuzgi bug‘doy esa sovuq ob-havoning boshlanishidan oldin unib chiqishga va ildiz otishga muvaffaq bo‘lishadi va bahorda ular o‘shishda davom etadi. Kuzgi bug‘doy navlari tuproqqa ko‘proq talabchan, ammo ob-havoning keskin o‘zgarishiga ham chidamli. Kuzgi bug‘doy odatda qorli qish bilan yumshoq iqlim sharoitida yetishtiriladi va kuzgi bug‘doy yetishtirish ko‘p jihatdan mintaqaning agrometerologik sharoitiga bog‘liq. Kuzgi bug‘doyni qachon ekish mintaq va iqlimga bog‘liq. Ekish odatda yozning oxirida boshlanadi va oktabr oyining o‘rtalariga qadar davom etadi. Kuzgi bug‘doy uchun yerni tayyorlash har bir mintaqada tuproq turi va mahalliy almashlab ekish bilan farq qiladi. Qishqi bug‘doyni yig‘ib terib olish iyun oyida va iyul oyining o‘rtalarida amalga oshiriladi. Hosildorlik jihatdan bahorgi bug‘doy navlari kuzgi bug‘doy navlaridan pastroq, ammo ular barcha foydali moddalarni faolroq singdiradilar. Bahorgi bug‘doyni ekishdan oldin tuproq gerbisitlar bilan ishlanadi shudgorlanadi va nafas olishga ruxsat beriladi. Bahorgi bug‘doyni erta ekish donning yaxshi ildiz otishiga yordam beradi. Bahorgi bug‘doy navlari may oyining jaziramasini yaxshi qabul qiladi. Xorazmning iqlim sharoitiga bog‘liq ravishda ilgari bug‘doyning йазлык deb atalgan navi ko‘p ekilgan. Hozirgi kunda bu navi juda kam ekiladi. Chunki uning hosili juda kam. Shu bilan bog‘liq ravishda uni ifodalagan terminlar ham iste'moldan chiqib, arxaizmlar qatoriga kirib bormoqda. Xorazmning Yangiariq tumani Gullanbog‘ qishlog‘ida esa umuman bahorgi bug‘doy navi yetishtirilmaydi. Faqat kuzgi bug‘doy yetishtiriladi.

Har bir o‘simlik ekinning o‘shishi, rivojlanishi maxsus so‘zlar yordamida belgilanadi. Bug‘doyning o‘shishiga oid nomlar: tup salmaq //dup ayirmaq,

pəndjələmək ‘ildizi yonidan bir necha qo‘shimcha ildiz chiqarmoq’, shaxalamaq ‘shox otmoq’, kulchə murun :kulchə ayirmaq :yazmaq ‘unib chiqmoq’, chərəkləmək//kulchə urmaq ‘kuzgi bug‘doyning unib chiqqandan keyin yerga yastanib yoyilishi’, kulchələnip jatmaq ‘kuzgi bug‘doyning unishi’; bandlashi; yalansaz ‘hali maysa chiqarmagan bug‘doy’, maysa: mırğ‘a ‘ endi nish urib chiqqan, lekin qalin ko‘karib chiqqanligi sababli yaxshi rivojlanmagan bug‘doy yoki arpa; bo‘g‘izlamaq, bo‘vuzlamaq, bo‘g‘iz chig‘armaq, buving‘a kelmək: gəlmək/ bo‘y almaq - bu so‘zlar bug‘doy yoki boshqa boshqoli ekinlar o‘shining dastlabki bosqichlarini anglatadi.бывын: боғын ‘boshqoli ekinlarning bo‘g‘imlari’. Shevalardagi variantlari: bo‘gum:bo‘g‘im:bo‘g‘uq:buvım ‘bo‘g‘in‘ so‘zlarida n-m-k undoshlaridan birining o‘rniga ikkinchisi qo‘llanishi xosdir. Qoraqalpog‘iston o‘zbek shevalarining xalq og‘zaki ijodi namunalarida ham keltirilgan:

Yegin yekti ushaqqənə.

Bog‘unları qo‘shag‘ana.

Mening bir suygənim bar

Qızıl guldəy yumshaqqinə

Shevalarda yukli:jukli bu g‘allaning mo‘l hosil tugishini anglatga yana boshqa ma'nosi esa homilador ayoljanubiy Qozog‘iston o‘zbek shevalarida jukt ‘xomilador’¹⁶ degan ma'nolarni bildiradi.qo‘shabash: go‘shabash ‘yonidan juft boshq chiqarmoq’. Boshqoli ekinlarning yakkam-dukkam gullay boshlashi, dastlabki boshqolar paydo bo‘lishi: bash samaq, tuynək samaq, qaragul көркəзмək. Bundan tashqari shevalarda bevosita boshqolarning yetilish jarayoni bilan bog‘liq

¹⁶ Muhamedjonov Q. O‘zbek tilining Janubiy Qozog‘iston shevalari. Toshkent: Fan,1983. 167 bet

terminlar ham ko‘plab uchraydi: gulgə yattı, gulgə kirishti , gul kərsətti, gulintəkti, gulin dəkti; gulge jıg‘ıldı; o‘raqqa kemək. Qiyos uchun: yiqılmaq, jatmaq, yatmaq bu ekinni sug‘organdan keyin yoki hosilini ko‘tara olmay yerga yotib qolish holati.

Yetishtirilgan hosilni yig‘ib terib olish eng mas‘uliyatli davr, unda ro‘y bergan har qanday to‘xtalish hosil yo‘qotishiga olib keladi. Shuning uchun boshqoli ekinlarni shu jumladan bug‘doyni ham yig‘ish bu boshqoli ekinlarni o‘rib olishdan boshlanadi. O‘rib olish so‘z va so‘z birikmalari frazeologik ifodalar yordamida ifodalanadi: o‘raq samaq bu o‘rim boshlanishini anglatadi. boshin belləmak, tap samaq, shaytanning mo‘ynin sindırmaq kabi iboralar ham o‘rim ishining boshlanishi ma'nosini bildiradi. O‘rib olish jarayoni bilan bog‘liq quyidagi so‘z va so‘z birikmalari mavjud: taba1) egat; 2) qator; 3) bir boshdan tartib bilan o‘rish; taba surmək bu o‘rish uchun jo‘xori yoki bug‘doy qatorini ajratish hisoblanadi. Pənjə boshqoli ekinlarni o‘rish paytida o‘rilgan yoki kesilgan bir qism o‘simlik tanasi. Taxiyatosh, Xo‘jayli-qipchoq va Qo‘ng‘irot shevalarida ana shu ma'noda pənjəm so‘zi qo‘llanadi. Dəstə bu kuchli o‘roqchining to‘rt yo‘lti yoki kuchsizroq o‘roqchining o‘n ikki pənjə somoni bir dastani hosil qiladi. Uning belidan bog‘langan shakli bag‘, bav, bag‘lam, kultə deb nomlanadi. Kultə bu quruq beda yoki o‘rilgan pichanni bildiradi. Kultəlmək pichan yoki bedani g‘aramlamoq yana quyidagi so‘z birikmalari ham qo‘llanadi: dasta baylamaq ‘dasta bog‘lamoq’, dasta samaq ‘alohida yo‘lakni o‘rishni boshlamoq; dasta chekmək dastani tashimoq . Quritish uchun boshqolarini tepaga qaratib qo‘yilgan to‘rt yoki beshta dasta yoki bog‘lam ɔybat deyiladi. Shuningdek bu so‘zning yana quyidagi ma'nolari bor: 1) g‘aram, 2) bir pachka gugurt kabi ma'nolari mavjud. O‘ntadan qirqtagacha bog‘lamdan iborat bo‘lgan katta g‘aram kudi yoki gudi deyiladi. O‘zbek shevalarida g‘aramni joylash usuliga qarab turlarini farqlaydilar: dastalari tik joylashgani-cho‘mmaltma gudi; dastalari yotiq qo‘yilgani - yatıq : jatıq gudi;

gudılәмәk bu o‘rilgan dastalarni bir joyga to‘plash yoki o‘rilgan jo‘xori poyasini yo boshqa o‘tni g‘aramlamoq; bellik 1) o‘rilgan dastalarni shamol uchirib ketmasligi uchun bir-birining ustiga yotqizib qo‘yish; 2) palto yoki kostyumning beliga qo‘yilgan, tikilgan mato; 3) uyning ustiga qo‘yilgan uzun yog‘ochning egilib ketmasligi uchun o‘rtasidan tik tirab qo‘yilgan poyustun; parch etmәk o‘rilgan dastalarni zichlash, mahkamlash .

Somonni tashish bilan bog‘liq tushunchalar ham shevalarda salmoqli o‘rin tutadi: arqalap tashmaq:arqalap chekmәk ‘orqalab tashimoq‘; tirmishlap arqalamaq bu arqonni qo‘ltiqning tagidan olib orqalash usuli sanaladi. Tog‘anaq bu dastalarni tashish va xirmonga keltirish uchun arqon bilan bog‘lash, arqonning bir uchini yog‘och ilgakka bog‘lash, deshikli toynuk ‘teshikli ilgak‘ ; iyri to‘ynuk ‘maxsus ilgaklar turi‘ tirmish ‘yuk pastga tushib ketmasligi va belga botmasligini ta'minlash uchun arqon ikki qo‘ltiqning ostidan o‘tkazilib , uning uchini qo‘l bilan ushlab yurish‘;bөktarmә ‘yukni otga ortish usuli‘, mogadak arba 1) somon tashishga mo‘ljallangan maxsus arava; 2) aravaning ustiga o‘rnatilgan soyabon. Qoraqalpog‘istonning butun hududida tuyәk: duyәk xirmonga to‘plangan donni yanchish ma'nosida, shuningdek, turkman tilining ba'zi shevalarida xop shakliga ega. Tuyәkchi:duyәkchi: xopchi bu somonni yanchishda xirmonda ishlaydigan kishi; xırman jay: qırman jay ‘xirmon joyi tuyәklәv:duyәklәмәk boshhoqli ekinlarni texnika yordamida yanchish jarayoni. Bir yerga yanchish uchun yig‘ilgan va yanchish uchun g‘aramlangan somon xırman:qırman deb ataladi. Shu bilan birga yanchish, somon yig‘ish jarayonlarini, ishchi qoramol va tortish kuchi hamda mehnat vositalari nomlarini ifodalaydigan kasbiy so‘zlar ham anchagina: xirmon atrofida odam bo‘yi qilib yig‘ilgan somon uyum:g‘or: eram yoki айлав so‘zi musobaqada otlarning aylana atrofini aylanib chopishi ma'nosini bildiradi. Somon hajmiga ko‘ra quyidagilarni farqlaydilar: bir uyum: g‘o‘r somon, ikki uyum: g‘o‘r

somon,dashki ‘tashqi‘ g‘o‘r ichyang‘i g‘o‘r; bir ayaq, eki ayaq, tuyək haydamaq xirmonda somonni ulov yordamida yanchish jarayonini ifodalaydi. Dalada yotgan yoki xirmonga keltirilgan, ammo hali yanchib ulgurilmagan g‘aramlar char:cho‘p deb ataladi. Bundan: chala yanchmak ‘oz-moz yanchmoq‘, ayaq samaq ‘xirmonga to‘plangan g‘aramlarni mollar oyog‘i ostiga tashlamoq‘; bir ayaq buday yanchish uchun hayvonning oyog‘i tagiga yoyilgan bir qavat boshqli ekin yoki bug‘doy somoni; ayaq qaytarmaq 1) xirmonda yanchilgan somonni ag‘darib, donni ajratish; 2) xirmon haydash paytida sochilgan somonni qaytadan mollar oyog‘i ostiga tashlash yoki oyog‘i ostidan olish jarayoni. Uyirmak:chashlav bu xirmonda yanchilgan donni xirmon o‘rtasiga yig‘ish, to‘plash jarayoni.kulche vurmak ‘mol oyog‘i ostidan somonni yana yig‘ib olish jarayoni. Dəstə samaq g‘aramlarni yechib mol oyog‘i ostiga sochmoq;bunga ayaq samaq:bermek so‘zi sinonim tarzida ishlatiladi. Ayaq ‘oyoq‘: 1) xirmondagi somon ustidan mol yurganda qoldirgan iz; 2) yanchish uchun yig‘ilgan somon hajmi o‘lchovi ikki-uch ayaqliq xırman bu ikki- uch marta yanchishga mo‘ljallangan somon; 3) mol oyog‘i ostiga sochiladigan somon. Xirmon o‘rtasiga o‘rnatilib, yanchish paytida atrofida ho‘kiz aylanib yuradigan to‘sin xop ag‘ach: xırman ag‘ach deyiladi.Tut shoxlaridan yasaliib, ana shu to‘singa erkin aylanishi uchun kiydiriladigan doira chammarak yoki chamberak , xuddi shunday temir aylana esa quruq so‘zi bilan ifodalanadi. Erkin aylanadigan to‘singa bog‘lanib, ishlayotgan ho‘kiz bo‘yni tagidan o‘tkaziladigan uch-to‘rt metrli yog‘och xa:da ‘xoda‘ deb nomlanadi. Xirmon markaziga eng yaqin turgan ho‘kizni duyipchi:tupkir, padar yayi; doirada eng chekkada turgan qoramol g‘irachi, xoq:qoq somonning juda mayda qoldig‘i, jo‘xorini tozalashda shamol olib ketadigan changi, bu yanchilgan, ammo donlari tozalanmagan somon; supsasi saman bo‘maq frazeologik iborasi ezilgan, ado bo‘lgan, adoyi tamom kabi ma'nolariga ega; saman ayirmaq bu somon olmoq

degani. Charli saman to'liq yanchilmagan somon va hokazo. Boshqni somondan to'liq tozalash jarayonini aks ettirgan maxsus nomlar ham mavjud: char 1) don tozalash uchun mo'ljallangan maxsus elakda yanchilmay qolgan bug'doy boshqolari yoki jo'xori so'talari; 2) pichoq yoki temirdan yasalgan ish qurollarini charxlaydigan asbob; xirman; xarpo'k; g'art bug'doy yoki jo'xorining kelida yanchilganida ko'tariladigan shulxa, arachep boshq va sovurilgan somon o'rtasidagi chegarani belgilaydigan tayoqcha, arastalamaq:ag'artmaq bu tozalamoq degani, kuyzəmək kelida yanchib tozalamoq, suvirmaq bu shamolda sovurish yoki silkitish yo'li bilan tozalash; 3) kelida yanchish orqali shulxasidan (qobiqdan) tozalash; suvurmaq 'sovurmoq' buday atmaq: xirman atmaq bu xirmonga to'plangan donni yuqoriga otib tozalash usuli, alas-alas bu shamol chaqirish jarayoni. Uyurmək: øvurmək bu yanchilgan donni xirmon o'rtasiga to'plash, suruvda qo'y-qo'zilarni bir joyga to'plash jarayoni hisoblanadi. Navbatdagi atamalar bug'doyning tozalangan boshog'ini ifodalashga oid: chash bu sovurilgan, ammo elanmagan donni xirmon o'rtasiga uymoq, qızıl to'liq tozalanmagan donni anglatib chash so'zi uning sinonimi sifatida ishtirok etadi. Qo'ng'iroqliklar sovurilgan bug'doy uyumini tøbə deb atasalar; beruniy-mang'it shevasida esa g'arəm, Xo'jayli hamda Taxiyyatosh shevasida gudi qo'llaniladi. Boshqali ekinlarga ishlov berish va yig'ib olish bilan bog'liq jarayonlarni anglatgan leksika umummilliy til asosiga ega bo'lib, ko'p hollarda uning kelib chiqishi asl o'zbekchdir. Dehqonchilik amaliyoti va xalq seleksiyasi rivoji bilan birga leksika ham taraqqiy etib bordi. Hosilni qo'lda terib olish vazifasini qishloq xo'jalik texnikasi bajaradigan bo'lgach, hosil yig'ish bilan bog'liq lug'at tarkibida ham jiddiy o'zgarishlar ro'y berdi. Ishlab chiqarishni tashkil etish umumiy asosda bo'lganligi sababli nomlarning umumlashuv jarayoni bormoqda. Shu sababli ko'plab so'zlar tarixiy so'zlar qatlamiga o'tmoqda.

III.BOB. DEHQONCHILIK LEKSEMASINI O'RGATISHDA DARSDAN TASHQARI MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH

3.1.Dehqonchilik leksemasini amaliyotga tatbiq etish bo'yicha metodik tavsiyalar

O'zbek tili darslarida va sinfdan tashqari tashkil qilingan maxsus mashqlarda o'quvchilar nuqtidagi orfoepik dialektizmlar aniqlanadi. Bunday mashg'ulotlarga sinfnig, undagi ayrim o'quvchilarning bilim darajasi, shu tipdagi vazifalarni bajarishga tayyorligini hisobga olgan holda talaffuzdagi nuqsonlarning bartaraf qilinishi lozim bo'lgan maxsus topshiriqlar tayyorlanadi. Shuni unutmaslik kerakki, birinchidan, topshiriqlarning hajmi katta, mazmuni murakkab bo'lmasin, ikkinchidan ijrosini tekshirish mavsumiy xarakterda bo'lmasin. Ular ona tili mashg'ulotlarida o'quvchilar bajaradigan mustaqil ishlarning bir ko'rinishi sifatida tez- tez o'tkazilib tursin. Shundagina bizning o'quvchilar nutqidagi orfoepik va orfografik dialektizmlarni bartaraf qilishga bag'ishlangan mashg'ulotlarimiz samarador bo'ladi. Chunki darsda o'quvchilar bajaradigan mustaqil ishlar evaziga "Berilgan informatsiyaning hajmi kichik bo'lib, u qancha ko'p tekshirilsa, ta'lim jarayoni shuncha muvaffaqiyatli boshqariladi".¹⁷

1. „Ot“ mavzusini o'tish munosabati bilan sabzavot va meva nomlarini ayting.

Gashir,biyi, kareli so'zlari adabiy tilda qanday aytiladi va yoziladi?

Kiyim- kechak nomlarini ayting?

Oziq- ovqat nomlarini ayting?

¹⁷ Молибог А.Г. Программированное обучения.Изд- во „Высшая школа,, М.1967.стр.19

2. O‘zlaringiz aytgan so‘zlar ishtirokida „Dehqon bog‘ida“ degan temada insho yozib keeling va shu kabilar

Shubxasiz, bunday topshiriqlarni bajartirish, xususan, mustaqil yozgan insholarini tekshira borish mahalliy sheva ta‘sirida kelib chiqadigan orfoepik xatolarni aniqlashning samarador usullaridan biri hisoblanadi. Metodik adabiyotlarda o‘quvchilar nutqidagi sheva ta‘sirida kelib chiqadigan orfoepik xatolarni aniqlashning tubandagi uchta usuli tavsiya qilinadi:

A / ayrim predmetlarning rasmlari aks ettirilgan plakatlarni ko‘rsatib, ularning nomini aytirish;

B / turli janrdagi adabiy asarlardan olingan tekstlarni o‘qitish;

V / nutqni o‘stirish darslarida savollarga javob olish va hikoya, ertaklarning mazmunini so‘zlatib, magnitafon lentasiga yozib, xatoni aniqlash.¹⁸

N.Ahmedov talaffuzi aniqlanishi lozim bo‘lgan so‘zlarda o‘quvchining lug‘at boyligi, so‘zdagi tovush yoki affiksning sheva talaffuziga nisbatan qanchalik oson yoki qiyinligi, rasmlardagi predmetning o‘quvchiga qanchalik tanish yoki tanish emasligini hisobga olish kerak, degan to‘g‘ri xulosaga kelgan.

O‘quvchilarning nutq madaniyatini o‘stirish, davrimiz talablariga javob beradigan savodxon avlodni tarbiyalash uchun faqat 45 minutlik dars mashg‘ulotlari kifoya qilmaydi. Ularning sinf mashg‘ulotlarida egallagan orfoepik va orfografik malakalari o‘zbek tilidan o‘tkaziladigan sinfdan tashqari ishlaridagina takomillasha boradi. Ayniqsa, o‘zbek maktablari o‘quvchilari kabi nihoyat murakkab dialektal sharoitda ta‘lim olayotganlar uchun ona tilidan o‘tkaziladigan sinfdan tashqari

¹⁸ Axmedov. N. Ko‘rsatilgan asar, 8-9- betlar.

tadbirlar va faqat fonetik, leksik va morfologik dialektizmlarni bartaraf qilishda, balki o‘quvchilarda grammatikani o‘rganishga qiziqish uyg‘otishda, o‘z tiliga nisbatan muhabbat va ehtiros bilan qarash tuyg‘usini tarbiyalashda ham beqiyos ahamiyatga molikdir. Chunki „ Har qanday ajoyib dars ham agar u o‘quvchilarning sinfdan tashqari o‘qishlariga tayanmasa, istalgan natijani bermaydi”.

Ona tilidan o‘tkaziladigan sinfdan tashqari ishlarning samaradorligi uchun tubandagicha umumiy tadbirlar amalga oshirilishi va ularga butun o‘quvchilar kollektivi rioya qilishi lozim.

1.Yagona orfografik va nutq rejimining talablariga amal qilish. Bu hujjat maktab pedagoglarining umumiy majlisida tasdiqlanadi.Rejimning bajarilishi maktab o‘qituvchilarining umumiy kengash- majlislarida, o‘zbek tili o‘qituvchilarining metodik uyushmalarida mutassil muhokama qilina boradi.Yagona orfografik va nutq rejimining kursida o‘zbek tili o‘qituvchilari tashabbuskorlik ko‘rsatmog‘i shart.

2. Ona tili to‘garaklarining ishini yaxshilash.To‘garak planlariga dialektizmlarni bartaraf qilishga oid suhbat, munozara tipidagi temalarni kirita borish.

3. Maktab ma’muriyatining maxsus buyrug‘i bilan dialektologiya to‘garagi tashkil qilish. To‘garakning tematik planiga mahalliy dialektning fonetik, leksik va morfologik xususiyatlari ifodalangan mavzularni kiritish.

4. Maktablarimizda mavjud ona tili kabinetlarining ishini talab darajasida olib borish. Kabinetning jihozlanishida o‘zbek tilini o‘rganish tadbirlariga ham alohida ahamiyat berish. Kabinetni o‘zbek tili va adabiyotidan sinfdan tashqari mashg‘ulotlar o‘tkaziladigan adabiy orfografik, orfoepik va nutq madaniyati markaziga aylantirish.

5. Shevada, adabiy til rubrikasida oyda bir marta o'zgartirib turadigan Imlo lug'ati taxtasini joriy qilish. Bu xususda til va adabiyot o'qituvchilarining ma'suliyatini oshirish.

DARS ISHLANMA

Mavzu: "Ot – so'z turkumi"

Ta'limiy maqsad:

- a) ot so'z turkumi yuzasidan olgan bilimlarini mustahkamlash va kengaytirish;
- b) o'quvchilar bilimini sinash va baholash;
- d) o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlari va og'zaki nutqini o'stirish;

Tarbiyaviy maqsad: o'quvchilarni ona tiliga va badiiy kitobga bo'lgan muhabbatlarini oshirish, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va ular ongiga axloqiy-ma'naviy fazilatlar, mehnatsevarlikni singdirish, mustaqil fikrlashga o'rgatish.

Rivojlantiruvchi maqsad; darslik bilan mustaqil ishlashga o'rgatish, o'z fikrlarini erkin, ravon bayon qila olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirish. Ijodkorlikka o'rgatish, xotirasini mustahkamlash.

Dars uslubi: Binar –dars, musobaqa, muammoli vaziyatni tashkil etish.

Dars shakli: Munozara, tahlil

Dars jixozi: sxemalar, tarqatmalar test va boshqotirmalar.

Dars muammosi:

Hamirni ishlab, bilimni

takrorlab pishitiladi.

Darsning tashkil qilinishi.

Tashkiliy davr:

O'quvchilar bilan salomlashish, navbatchi orqali davomatni aniqlash.

So'ngra ushbu she'r o'qiladi:

Ona tilim- o'zbek tilim, jon tilim,

O'zbek elda beku amir, jon tilim.

Ona suti birla qonga jo tilim,

Demak, o'quvchilar darsimiz ona tili.

Aziz o'quvchilar, endi diqqat bilan menga quloq soling. Men hozir sizlarga bir topishmoq aytaman. Siz javobini aytasiz.

Daraht emas, yaproqli,

Ko'ylak emas, etakli,

Odam emas, so'zlaydi,

Turli kuylar kuylaydi.

Qani o'quvchilar, topishmoqning javobi nima?

O'quvchilar: Kitob.

O'qituvchi: Barakalla, haqiqatdan ham topishmoqning javobi kitob. Kitob – barcha bilimlarning asosidir. Biz kitob orqali o'z bilimimizni oshirib boramiz. O'quvchilar, kitob va uning ahamiyati haqida nimalar deya olasiz?

O'quvchilar o'z fikrlarini bildiradilar.

1- O'quvchi: Kitob – bizning eng yaqin do'stimiz. Kitob – bizni bilimli qiladi, savodimizni chiqaradi, harf tanitadi, yozish va o'qitishni o'rgatadi.

2- O'quvchi: Kitob – bizni to'g'ri tarbiyalashga yordam beradi, hayotni to'g'ri tushunishga, odobli va ahloqli bo'lishimizga, lazzat olishga o'rgatadi. Og'zaki va yozma nutq malakalarimizni o'stiradi.

3- O'quvchi: Kitob insonni koinot egasiga aylantiradi.

4- O'quvchi: Kitoblar qarshisida jamiki narsa nursiz bo'lib qoladi.

5- O'quvchi: O'zimdagi eng yahshi fazilatlar uchun kitobdan minnatdorman.

6- O'quvchi: Kitob insonga qanot bag'ishlaydi.

7- O'quvchi: Kitobsiz inson hayoti bo'm-bo'sh. Kitob do'stimizgina emas, balki doimiy, umrbod hamrohimiz hamdir.

8- O'quvchi: Kitoblar qalbni yoritadi, insonni yuksaklikka ko'taradi va kuchiga – kuch qo'shadi, unda eng yahshi orzu istaklarni uyg'otadi, aqlni charxlaydi va yurakni yumshatadi.

9- O'quvchi: Kitob fikrlash qobiliyatimizni harakatga keltiradi, aqliy tanballigimiz bilan kurashishga ko'maklashadi.

10- O'quvchi:

Jahonda kitobdan yahshi yor bo'lmas,

Davr g'amxonasida g'amgusor bo'lmas,

Yolg'izlik kunjida undan har qachon,

Yuz rohat yetar, lek bir ozor bo'lmas.

O'qituvchi: Barakalla, aziz o'quvchilarim, ofarin. Juda yahshi fikrlarni bildirdingiz. Albatta, aytgan fikrlaringizga o'zingiz ham amal qilasiz deb ishonaman.

O'quvchilar! Mana kitob haqida, uning ahamiyati haqida fikrlashib oldik, kitob so'zi qanday so'roqqa javob bo'ladi?

O'quvchilar: Nima? So'rog'iga javob bo'ladi.

Demak, o'quvchilar, kitob so'zi qaysi so'z turkumiga mansub?

O'quvchilar: Ot so'z turkumiga mansub.

O'qituvchi: Hurmatli va aziz o'quvchilar!

Biz sizlar bilan ot so'z turkumi, uning Grammatik xususiyatlari haqida to'la tanishib chiqdik. Biz bugun sizlar bilan yangi pedagogik texnologiya asosida noan'anaviy binary-dars orqali "Ot soz turkumi va uning ifodalanishi" bo'yicha musobaqa darsini o'tkazamiz. "Ot so'z turkumi" olamiga sayohat qilamiz. Dars bir necha bosqichli topshiriqlardan iborat.

O'quvchilar! Sizlar shu 45 daqiqa davomida "Ot so'z turkumi" mavzusi bo'yicha olgan bilimlaringizni, topqirligingizni, zukkoligingiz, iqtidoringiz, ifodali o'qish mahoratingiz orqali namoyish qila olasizlar degan fikrdaman. Sizning mashaqqatli safaringizga omadlar tilab qolaman.

Darsimiz musobaqa darsi bo'lganligi uchun ikki guruhga bo'lib olamiz:

Darsimiz musobaqa darsi bo'lganligi uchun ikki guruhga bo'lib olamiz:

1-guruh: "Atoqli otlar"

2-guruh: “Turdosh otlar”

Darsning rejasi:

1. Aqliy mashq: “Raqamlar tilga Kirganda”.
2. Savol-javob musobaqasi
3. Tarqatmalar bilan ishlash, tahlil
4. Testlar asosida musobaqa
5. Boshqotirmalar yechish
6. Sardorlar bellashuvi
7. Ona tiliga muhabbat-she’riy lahzalar
8. Uyga vazifa berish.

I Topshiriq. Aqliy mashq:

“Raqamlar tilga kirganda”.

Bunda raqam yozilgan kartochka ko‘tariladi, guruhlar javob beradilar.

1989 yil 21 oktabr — O‘zbek tiliga Davlat tili maqomi berilgan kun.

1993 yil 2 sentabr — Lotin yozuviga asoslangan O‘zbek alifboga o‘tish to‘g‘risidagi qonun qabul qilingan kun.

1995 yil 6 may -“Yangi yozuv qayd qilingan kun”.

1995 yil 21 dekabr –Davlat tili to‘g‘risidagi qonunga o‘zgartirishlar kiritilgan kun.

1995 yil 24 avgust — Imlo qoidolari tasdiqlash to‘g‘risidagi qaror qabul qilingan kun.

1998 yil 13 may — Umumiy o‘rta ta’lim tashkil etish to‘g‘risidagi BM qarori.

Guruhlarning javobiga qarab, g‘olib guruh aniqlanadi.

Dehqonchilik so‘zi ot so‘z turkumiga mansub, ikkala guruh dehqonchilikka oid so‘zlarni yozadilar

1 guruh sabzavot nomlarini

2 guruh meva nomlarini ayting va aytilgan shu so‘zlarni adabiy tildagi nomi bilan solishtirish. O‘zlaringiz aytgan so‘zlar ishtirokida “Dehqonchilik” degan mavzuda matn yozib keling.

Testlar asosida har ikkala guruh musobaqalashadi. O‘qituvchi tomonidan tayyorlab kelingan testlar har ikkala guruhga tarqatiladi:

Test savolariga tayyorlanib, javob berish jarayonida , har ikkala guruhdan bittadan o‘quvchi tahtada mevali va mevasiz daraxtlardan 10 tadan misol yozish bo‘yicha musobaqalashadilar.

O‘tirgan bo‘sh o‘quvchilar: 1-guruh gul nomlariga, 2-guruh o‘t-o‘lan nomlariga 10 tadan misol yozadilar.

V topshiriq

Bu topshiriqda guruhlar ot so‘z turkumiga xos bo‘lgan so‘zlardan tuzilgan boshqotirmalarni yechadilar.

(Boshqotirmalar ilova qilinadi)

VI topshiriq. Sardorlar bellashuvi.

Sardorlarga yashin tezligida bir marotaba soʻzlar oʻqib beriladi, soʻng ular eslab soʻzlarni yozishi kerak. Qaysi sardor koʻp soʻzni eslab yozsa, oʻsha sardor gʻolib boʻladi.

Soʻzlar: kapalak, kamalak, laylak, elak, etak, choynak, telpak, terak, gʻaltak, ertak

Demak, ona tilimiz nechogʻli goʻzal va boy til ekanligini his etdik.

Ona tilimizning soda, ravon, goʻzal va boy til ekanligini shoirlar ijodida ham oʻz aksini topgan. Qani, aziz oʻquvchilar ona tilimizga boʻlgan hurmat va muhabbatimizni qanday ifodalay olasiz?

Avval oʻzim boshlab beraman:

Oʻzbek soʻzin tinglab kirdi menga jon,

Ohista tirildim va shunda bildim:

Meni tuzatolmas hech dori-darmon,

Jonimga Masihdir shu ona tilim.

Mayli, kim qay tildan zavqu shavq olsa,

Mening oʻz tilimga ming jonim fido.

Erta ona tilim agar yoʻqolsa,

Men bugun oʻtishga boʻlurman rizo.

Mayli, qashshoq boʻlsin, mayli behasham,

Lekin mening uchun aziz va suyuq.

Jahon minbaridan yangramasa ham

Ona tilim menga muqaddas, buyuk.

Qani, o'quvchilar, navbat Sizlarga:

1-o'quvchi:

Navoiyning nazmi ila qanot boylagan,

BoburShohning iztirobin xatga joylagan,

O'z yurtida toptalsa ham, sabot aylagan,

Ichimdagi asiramsan yoki pirimsan,

Podshohimsan, vazirimsan, Ona tilimsan.

2-o'quvchi:

Qulog'imga ilk bor kirgan azning bo'ldi,

Ham o'ylatgan, ham so'ylatgan mezoning bo'ldi,

O'zligimni anglatuvchi lisoning bo'ldi,

Qayg'umsanmi, quvonchimsan yoki sirimsan,

Dardim bilan tilmochimsan, Ona tilimsan.

3-o'quvchi:

Onam bo'lib tunda alla aytarding o'zing,

Yupanch bo'lib dildan g'amni haydarding o'zing,

Duo bo'lib ne baloni qaytarding o'zing,

Soʻzda kechgan oyu kunim necha yilimsan,

Tariximsan, taqdirimsan, Ona tilimsan.

Uyga vazifa: “Ona tilim-jonu dilim” mavzusida uy inshosi yozib kelish

MAQOLA

Xorazm viloyati Yangiariq tumani shevasida uy-ro'zg'or anjomlari va ish qurollari leksikasining semantik-funksional tahlili

L.R.G'apparova - Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti talabasi

Tayanch so'zlar va iboralar: mehnat quroli, uy-ro'zg'or buyumlari, turlari, foydalanish usullari.

Mehnat bilan shug'ullanish jarayonida ishning tez, sifatli bajarilishi uchun asosiy vosita sifatida ish qurollari yordam beradi va undan keng foydalanadi. Faol qo'llanuvchi uy-ro'zg'or anjomlari; anjomlarining bir-biriga o'xshash yoki farqli bo'lishi muayyan vazifani bajarib kelishi, vazifasi, o'ziga xosligi, paydo bo'lishi, semantik jihatdan izohlanadi.

Har bir sheva jamoasi o'ziga xos xo'jalik yuritish usullariga ega bo'lganligi sababli uy-ro'zg'or buyumlari, mehnat qurollarining detallashgan nomlari uchraydi. Bu anjomlarning vazifasi bir-biriga o'xshash yoki farqli bo'lishidan qat'i nazar, ularning har biri o'z vazifasini bajarishda, mehnat jarayonini yengillashtirishda muayyan ahamiyatga ega. Ularning har biri insonning o'z ishini osonlashtirish, qulaylik ehtiyoji va ishbilarmonlik tajribalari natijasida yaratilgan.

Yangiariq shevasida uchraydigan uy-ròzg'or buyumlari va mehnat qurollaridan o'rinli foydalaniladi. Uy anjomlari kishining qanday hudud va sharoitda yashashi, qaysi faoliyat turi bilan shug'ullanishiga ko'ra ham farqlanadi. Ma'lum hududda ishlatiladigan uy anjomlarining o'ziga xosligi, xususan ko'proq qanday materiallardan yasalishi ham o'sha hududning geografiyasi bilan bog'liq. Masalan, suv havzalari va qamishzorlarga yaqin

hududlarda yashovchi aholi o'z hududiy imkoniyatlaridan kelib chiqib, qamishdan to'qiladigan bo'yra, chiptalardan foydalanishadi.

Asrlar osha insonga xizmat qilish va uning mehnatini yengillatish uchun ayrimlari biroz o'zgargan, takomillashtirilgan. Inson ongi va turmush tarzining ko'pgina jihatlari ham aynan uy anjomlariga qarab insoniyat tarixiga, hayotiga baho berilishi ham bejiz emas. Bugungi kunda ayrim hududlarda qo'llaniluvchi ish qurollari faqat o'tmishning eksponat(namuna)lari bo'lib qolmasdan, hozirgi texnikalashgan, mexanizatsiyalashgan, innavatsiyalashgan jamiyat kishilari uchun muhimdir. Masalan, ayrim chekka qishloq hududlarida hali ham omoch, keli(o'gir) kabi anjomlardan foydalanilmoqda. Foydalanish bilan bog'liq tarzda ularning nomi ham shu hudud shevalarida uchraydi, biroq adabiy til lug'atlarida qayd etilmagan bu kabi uy anjomlari va ish qurollari nomlari ham tegishli hudud shevasiga xos so'z leksik dialektizmlardir. Ularning ayrimlarini Yangiariq shevasi misolida izohlaymiz:

Uy-ro'zg'or buyumlari, asbob uskunalar nomlarini anglatuvchi leksemalar:

Kasa (piyola), dastirxan (dasturxon), chalak (chelak), nax(ip), kat (karavat), rapida (non yopishda ishlatiladigan narsa), vilka (sanchqi), choynik(choynak), xo'na (xontaxta), kapkir(kaftkir), diyval (devor), ak(ohak), shikki (shokolad), svit (svet), tomichka (tumbochka), lampichka (lampochka), kastrol (kasteryulka), kand (konfet), platisa (sochiq), ustar (stol), taka (yostiq), sipsa (supurgi), inna (nina), arja (sandiq), kovish (oyoq kiyim nomi), sipro (supra), yo'g'ich (yoygich), oqlo(.....), uttik (dazmol), lapatka (bel), grable (xaskash), choynik (choynak), duz (tuz), bel (ketmon),

"Ish quroling soz bo'lsa, mashaqqating oz bo'lar" maqoli bejiz shakllanmagan. Mehnat jarayonida asboblardan foydalanishni bilgan kishi, albatta,

uni tuzatishni (ta'mirlashni, ish samaradorligi uchun rostlashni) ham bilishi kerak. Ish qurollaridan ko'p (yoki notog'ri) foydalanish natijasida ularning ishchanlik, samaradorlik xususiyatlari susaya boradi. Ayrim hududlarda o'roq, ketmon kabi tig'li asboblarning o'tmaslashishini bartaraf etishda ularning to'mtoq bo'lib qolgan uch qismi bolg'a bilan urib "o'tkirlanadi". Bu harakat Zomin shevalarida chingnash deb nomlansa, turk-kaltatoy shevalarida tevalamoq so'zi bilan ifodalanadi. Yangiariqda bu so'z "charxlamok" so'zi bilan ishlatiladi. Mazkur usulda asboblarning ishchanligini oshirish ko'pgina hududlarda mavjud. Bu esa mazkur tushunchani ifodalovchi chinglash dialektizmini adabiy tilga qabul qilish lozimligini ko'rsatadi. Bundan tashqari shevalarda qo'llaniluvchi qandu (don saqlaydigan katta sandiq), potila (qiyom qaynatishda foydalaniladigan mis qozon), tuvoq(tandir va o'choq og'zini berkituvchi loy qopqoq), shevan (go'sht maydalashda ishlatiladigan kunda) kabi sof leksik birliklar qo'llaniladi.

Xulosa sifatida qayd etish joizki, shevalardagi uu anjomlari va ish qurollari katta iqtisodiy- ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lmasa-da, tarixiy, madaniy qadriyatlarni o'zida mujassamlashtirgani va bugungi kunda ham insonga beminnat xizmat qilayotganligi bilan diqqatga sazovordir. Tilshunoslikda mazkur so'zlarni o'rganish orqali adabiy til leksikasini boyitish mumkin. Shuningdek, bunday so'zlar turli xududlarda yashovchi kishilarning kundalik hayoti va faoliyati, dunyoqarashi va lisoniy idroki haqida ko'proq ma'lumotlar berish uchun xizmat qiladi.

Rezyume: Ushbu maqolada aksariyat o'zbek xonadonlarida uchraydigan, Yangiariq shevasida qo'llanadigan, biroq adabiy til lug'atlarida qayd etilmagan uy anjomlari va mehnat qurollari bilan bog'liq dialektizmlar tahlilga tortiladi. Ularning ijtimoiy-lisoniy ahamiyati xususida munozara yuritiladi.

Adabiyotlar

- 1. " O‘zbek tili va adabiyoti " — Toshkent " Fan ". 1997- yil**
- 2. " O‘zbek tili va adabiyoti " — Toshkent.**

Xulosa

Xorazm viloyati Yangiariq tumani o'zbek shevalari qishloq xo'jalik ya'ni dehqonchilik leksikasi ko'p asrlar davomida o'zbek tili tarixi va uning moddiy madaniyati rivoji bilan uzviy bog'liq ravishda shakllangan. Chunki O'zbekiston, jumladan, Xorazm viloyati hududida dehqonchilikning lalmi dehqonchilik va lalmi sug'orish sistemasi qadimdan mavjud bo'lib, uning shakllarining muntazam takomillashuvi, dehqon mehnati jarayonlarining tabaqalanishi kabi hodisalar dehqonchilik leksikasida aks etgan. Qishloq xo'jalik leksikasi kasbiy leksikaning boy va tabaqalashgan guruhini tashkil qilish bilan birga, o'zbek umumiste'mol leksikasining uzviy qismi hisoblanadi. Uning asosiy qismi tilning ichki resurslari va tashqi manbalar hisobiga rivojlanib, shakllanib borgan. Shu kunga qadar qishloq xo'jalik leksikadan yig'ilgan ma'lumotlarni tahlil qilib, ularga xos bo'lgan asosiy belgilarni quyidagicha ko'rsatish mumkin: 1) sinonimik qatorlar va fonetik variantlarning mavjudligi qadimdan chegaradosh va qo'shni yashab kelayotgan qoraqalpoq, qozoq, turkmanmillatlarining o'zaro ta'siri bilan uzviy bog'liq; 2) ko'pgina frazeologik iboralar, juft so'zlar, qadimdan mavjud bo'lgan mahalliy so'zlar bilan qo'shni tillar unsurlarining o'zaro munosabati natijasida hosil bo'lgan; 3) urug'-qabila tillari unsurlarining saqlanib qolganligi: yasmuq: jasmuq bu jo'xorining ertapishar navi, so'ta 1) makkajo'xori so'tasi; 2) tayoq, cho'qmor, botirlarning jang quroli. Bular mintaqadagi qoraqalpoq, qozoq, turkman millatlari shevalari bilan mushtarak so'zlardir. Ular mazkur hududda ushbu xalqning azaldan doimiy yashab kelayotganligidan darak beradi. Bu haqida Jirmunskiy quyidagicha yozadi: Har bir milliy respublikaning hududida qo'shni milliy guruhlar va dialektlarning sezilarli darajada izlari bor. Bu tarqoq til juda rang-barang xususiyat kasb etadi. Qarindosh tillar va dialektlarda gaplashuvchi xalqlarning bu xildagi

birga yashashlari tufayli tarixiy-lingvistik nuqtayi nazardan har xil qo'shni shevalarning o'zaro bir-biriga ibrat bo'ladigan ta'siri yuzaga kelishi muqarrar. O'zbek shevalari boshqa tillardan o'zlashgan lug'aviy birliklarning mavjudligi maishiy, iqtisodiy, savdo-sotiq aloqalari, qarindoshlik, qo'shnichilik munosabatlari ba'zan bir joyda istiqomat qilib kelishlari bilan uzviy bog'liq. Bu bir sheva doirasida kelib chiqishi jihatidan turlicha bo'lgan leksik sinonimik qatorlarning yuzaga kelishi uchun imkon tug'diradi. Bu jarayonni adabiy tildagi urug' so'zi misolida ham kuzatish mumkin. Tuqum:tuqim so'zi 1) urug'; 2) o'simlik urug'i, urug'lik don 3) qarindosh, bir otadan uchirilgan avlod; 4) og'ayni ma'nolarini bildiradi. Leksemalarning faol va nafaol qo'llanish darajasi u yoki bu qishloq xo'jalik ekinining jamiyat hayotidagi o'rnini, uning tarqalish hududi bilan belgilanadi. Qoraqalpog'iston o'zbek shevlari qishloq xo'jalik leksikasining adabiy til munosabatiga ko'ra: 1) umumadabiy tilga muvofiq keladigan kasb-hunar leksikasi; 2) adabiy tilga jalb etilmagan, uning uchun zahira vazifasini o'taydigan kasb-hunar leksik qatlami. Xullas, Xorazm viloyati Yangiariq tumanidagi o'zbek shevalari o'zining leksik-semantik xususiyatlariga ega. Leksik-semantik o'zgachaliklar bu shevalarda urug' tillari unsurlari hisobiga uzoq davr jarayonida shakllandi. Turkiy tillar shakllangunga qadar fors-tojik tilidan o'zlashtirish, keyinroq qoraqalpoq, qozoq, turkman tillari va shevalari hisobiga omonim va sinonimik qatorlarning kengayishi hisobiga boyib bordi. Dehqonchilikka oid leksikaning aksariyati adabiy tilda ekvivalentiga ega bo'lmagan maxsus so'zlardan ibratdir. Shu sababli ularning katta qismi umumxalq tilining faol leksikasi tarkibiga kirib, so'ng adabiy til boyligiga aylanadi. Xorazm viloyati ilm-fan va texnika, sanoat va qishloq xo'jaligining o'sishi tufayli dehqonchilik leksikasi ham o'zbek tili leksikasi bilan birgalikda rivojlanmoqda. Bunda ikki tomonlama jarayon kuzatilmoqda umumlashish jarayoni kechmoqda, dehqonchilikning eski usullari

o'rnini yangi xo'jalik yuritish sistemasi egalladi hamda ishlab chiqarish tabaqalashuv va mehnat bo'linishi natijasida leksika detallashuvi ya'ni leksikaning bo'linish jarayoni kechmoqda. Shunday qilib, dehqonchilik leksikasining leksik asosi boshqa sohalarga nisbatan ko'proq xalqchilligi, milliyligi bilan farqlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

- 1.** Mirziyoyev SH.M. Milliy o‘zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli (O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi) “ Xalq so‘zi” 2019- yil 22- oktabr
- 2.** Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat –yengilmas kuch” Toshkent “ Ma’naviyat” 2008-yil 83- bet
- 3.** Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. Toshkent. Muloqot, 2008.83- bet.
- 4.** Alisher Navoiy. MAT. Tom 1. Toshkent, 1987. 223-bet
- 5.** Avesto. Tarixiy- adabiy yodgorlik. Asqar Mahkam tarjimasi. Toshkent, 2001. 326- bet.
- 6.** Berdiyev O. va boshqalar.Drevneyshie zemledelisi Yujnogo Turkmenistana. Ashxabad: 1970. 364 bet.
- 7.** Do‘simov Z. Xorazm toponimlari. Toshkent, 1985. 42 – bet.
- 8.** Golodkovskiy V. A. Makkajo‘xori taksonomiyasi. Toshkent: Fan, 1966. 191 bet
- 9.** Ibragimova Z.Y.Qoraqalpog‘iston o‘zbek shevalari qishloq xo‘jaligi leksikasining lingvogeografik tadqiqi: Filol.fan. nom. Avtoref.-Toshkent, 2009.
- 10.** Молибог А.Г. Программированное обучения.Изд- во „Высшая школа,, М.1967.стр.19
- 11.** Muhamedjonov Q. O‘zbek tilining Janubiy Qozog‘iston shevalari. Toshkent: Fan,1983. 167 bet
- 12.**Qoshg‘ariy M. Devonu lug‘otit- turk. Tom 3. Toshkent, 1961. 19-bet

- 13.** Rustamov A. Maxmud Zamaxshariy. Toshkent, 1971. 17 – bet.
- 14.** Rustamov A. So‘z xususida so‘z. Toshkent, 1987. 129- bet.
- 15.** Rustamov A. So‘z xususida so‘z. 129- bet; Avesto. 303- bet.
- 16.** Yo‘ldoshev M.Xiva xonligida feodal yer egaligi. Toshkent,1961. 128- bet.

